

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika instituti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası

Tabiatshunoslik va geografiya fakul`tetı «Geografiya o`qıtısh
metodikasi» ta`lim yo`nalishining

4-b kurs talabasi Rajapov Jantorening

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: «O`zbekistonning rekreatsion resurslari va uning
jarayonining rivojlanish xususiyatlari».

Ilmiy rahbar:

katta o`qıtuvchi Radjapov M.Ya

Kafedra boshlig`i:

p.f.n. dots. Gaypova R.T

Nukus-2015 yil

Mundarija

KIRISH.....	3
I bob. Hududiy rekreatsion tizimlar va rekreatsion geografiyaning tadqiqot usullari.....	6
1.1. Hududiy rekreatsion tizimlarning asosiy turlari	6
1.2. Rekreatsion geografiyaning tadqiqot usullari	7
1.3. Rekrealogiyaning asosiy tushunchalari va vazifalari.....	13
II bob. Rekreatsiya resurslari va uning hududiy rivojlanishi shart-sharoitlari hamda omillari	17
2.1. Umumiy mehnat taqsimoti tizimida rekreatsiyaning roli, o`rni va rekreatsion korxonalar	17
2.2. Rekreatsion salohiyatning tabiiy shart-sharoitlar bilan bog`liqligi.....	20
2.3. Suv resurslari rekreatsion salohiyatni ta`minlovchi omil sifatida.....	23
2.4. Yer resurslari va atmosfera rekreatsion salohiyatni belgilovchi muhim omillar.....	28
III bob. O`zbekistonda turizm va rekreatsion jarayonlarning rivojlanishi xususiyatlari	35
3.1. Jahon rekreatsion tizimida O`zbekistonning tutgan o`mi.....	35
3.2. Rekreatsion rayonlarni belgilash, uning xususiyatlari, shakllanish shart-sharoitlari va omillari.....	37
3.3. Rekreatsion rayon belgilari va O`zbekistonning rekreatsion zonalari	42
3.4. Rekreatsiyaning rivojlanishida festivallar, ko`rgazmalar, xalq bayramlari va sportning ahamiyati.....	45
3.5. O`zbekiston tabiati va uni muhofaza qilish zaruriyati.....	47
Xulosa.....	50
Adabiyotlar ro`yxati.....	53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyingi yillarda, mamlakatda iqtisodiyotni, shu jumladan, rekreatsion resurslar va uni rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ldi.

O'zbekiston tabiatininng ajralmas qismi bo'lgan rekreatsion resurslar hozirgi kunda tabiiy boyliklarning ustuvor yo'nalishi hisoblanib, bevosita ularning rivojlanganlik darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy sharoiti ya'ni, tabiat komplekslari, texnik infratuzilmalarining rivojlanganligi sanoat tarmog'i, xizmat ko'rsatish tizimi, madaniyat, san'at ilm fanining rivojlanganligi bilan, ya'ni bir so'z bilan aytganda, mamlakatlarning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rnini bilan bog'liq.

O'zbekistonning nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lganligi, xalqaro bitimlar, shartnomalarning o'z vaqtida imzolanganligi hududlarda dam olish uylari, turistlar bazalari, sport lagyerlari, sanatoriyalar, sanoat, transport, savdo va aloqa muassasalarining rivojlanishi rekreatsion faoliyatning rivojlanishida asos bo'lib hisoblanadi.

Mamlakat hududidagi barcha sohalarda islohotlarni amalga oshirish uchun, O'zbekiston etarli imkoniyatlarga – nisbatan qulay tabiiy va iqtisodiy geografik o'rniga, boy tabiiy va inson resurslariga hamda ma'naviy va ilmiy-texnikaviy salohiyatlarga ega.

Ko'pgina mamlakatlarda rekreatsion xizmat iqtisodiyotning yirik va mustaqil tarmog'i bo'lib, band aholining 10-15 % ini o'ziga jalb qiladi. Rekreatsion faoliyatni tashkil qilish hududning tabiiy va iqtisodiy sharoiti bilan, ayniqsa, hududning geografik joylashuvi bilan bog'liq. Masalan, Turkiya davlatining geografik o'rnini, ya'ni uning evropa, Osiyo, Afrika bilan tutash hududiga joylashganligi unda bu faoliyatning rivojlanishida bosh omil bo'lgan. Shuningdek, mamlakatlarning tarixiy, etnografik va madaniy o'rnini ham bunda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bu hududlarda dam olish uylari, turistlar bazalari, sport lagyerlari, sanatoriyalar, sanoat, transport, savdo va aloqa muassasalarining rivojlanishi rekreatsion faoliyatning rivojlanishida asos bo'ladi. Shu o'rinda Prezident I.A.Karimovning: «Rivojlangan eksport quvvatisiz

O'zbekistonning kelajagi yo`q. Eksportga yo`naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishga oid maxsus dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish zaruriyati etildi», – deb ta`kidlaganligini eslash joiz.¹

Tadqiqotning ob`ekti va predmeti.** Bitiruv ishining **ob`ekti O'zbekistonning hududiy rekreatsion tizimlar, turli xil rekreatsion tizimlarning shakllanishi, rivojlanishi va tarqalishi rekreatsion geografiyaning o`rganish ob`ekti bo`lib hisoblanadi.

Rekreatsion geografiya XX asrning ikkinchi yarmidan rivojlana boshladi. Mazkur fanning rivojlanishida V.S.Pereobrajenskiy, A.A.Mints, P.G.Tsarfiya, I.P.Gerasimov, A.A.Shoshina, A.P.Avtsin, A.D.Lebedov va boshqalarning xizmatlari katta. **Predmeti** O'zbekiston tabiiy resurslar bilan etarli darajada ta`minlangan, Shuningdek, mamlakatlarning tarixiy, etnografik va madaniy o`rni ham bunda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bu hududlarda dam olish uylari, turistlar bazalari, sport lagyerlari, sanatoriyalar, sanoat, transport, savdo va aloqa muassasalarining rivojlanishi rekreatsion faoliyatning rivojlanishida asos bo`ladi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida rekreatsion resurslar va uni rivojlantirish bayon etilgan geografik xususiyatlariga e`tibor qaratilganligi tadqiqot mavzusining ilmiy va amaliy ahamiyatini asoslaydi hamda uning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi va vazifasi shundan iboratki, O'zbekistonning mustaqilligi bilan bevosita bog`liq bir qator masalalar, uning rekreatsion resurslari va uni rivojlantirish yo`llarini tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot ishining nazariy asoslari. Ishning nazariy asoslari mustaqillik davrida respublikada sodir bo`layotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi o`zgarishlar bilan bog`liq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan olg`a surilgan takliflarga hamda ushbu masalalarga tegishli respublika rahbariyati tomonidan qabul qilingan qonun va ko`rsatmalar bilan tavsiflanadi. Shuningdek,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. «O'zbekiston». 1998, 145 bet.

ijtimoiy-iqtisodiy geografiya va ularga tutash fanlarda yaratilgan ilmiy g`oya va qonuniyatlar ham ushbu malakaviy ishning nazariy asosidan o`rin olgan. Mamlakat rekreatsion resurslari va uning rivojlanishida esa bevosita uning tabiiy salohiyati va iqtisodiy geografik o`rni, undan foydalanishning hududiy va tarmoq xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot vazifalari. O`zbekiston Respublikasi rekreatsion resurslari va uning rivojlanishi, uning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanishning geografik jihatlari bilan uzviy bog`liqligi asoslandi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati. Ishning nazariy ahamiyati avvalo, O`zbekistonning rekreatsion resurslari va uning rivojlanishi ayrim ma`muriy-hududiy bo`laklar bo`yicha tahlil etilganligi bilan bog`langan. Mustaqil O`zbekiston Respublikasining rekreatsion resurslarini tadqiq etishga bag`ishlangan ish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molikdir.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Ish materiallarining u yoki bu tarzda qo`llanilishi (tavsiyalar) rekreatsion resurslar va uning rivojlanishiga oid masalalar doirasini kengaytirish, faoliyatning geografik xususiyatlariga ahamiyat berish, shuningdek, ularni respublika hukumati darajasida hal etishga yordam berish imkonining mavjudligi mazkur ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Malakaviy ishi tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, xulosa, adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 53 bet, uning matn qismi 48 bet bo`lib, 1 jadval, 7 rasm, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va manbalarni o`z ichiga oladi.

I-BOB. HUDUDIIY REKREATIONS TIZIMLAR VA REKREATIONS GEOGRAFIYANING TADQIQOT USULLARI

1.1. Hududiy rekreations tizimlarning asosiy turlari

Geografik kashfiyotlar tarixida Qizil va O`rta dengizlarini tutashtiruvchi Suvaysh kanalining qurilishi evropa, Osiyo, Amerika va qolaversa Avstraliya qit`alari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda katta o`zgarishlarni keltirib chiqardi. Natijada, “Buyuk ipak yo`li ” inqirozga uchradi. Arzon dengiz yo`lining ochilishi mamlakatlararo savdo aloqalarini rivojlanishini ta`minlash barobarida dengiz bo`yi shaharlarini rekreations ahamiyatini oshirdi.

Hududiy rekreations tizimlar, turli xil rekreations tizimlarning shakllanishi, rivojlanishi va tarqalishi rekreations geografiyaning o`rganish ob`ekti bo`lib hisoblanadi (Pereobrajenskiy, 1975).

Hududiy rekreations tizimlar to`rtta asosiy turga bo`linadi:

I – davolovchi;

II – sog`lomlashtiruvchi;

III – sport;

IV – bilish.

Davolovchi xududiy rekreations tizimlarda davolash tibbiy omillar vositasida amalga oshiriladi. Ularga mineral suvlar (ichiladigan, cho`miladigan, balchiqlar), iqlimiy shart-sharoit kiradi.

Hududiy rekreations tizimlarni ikkinchi va uchinchi turida kishilarni sog`lig`ini mustahkamlaydigan chora-tadbirlar qo`llaniladi. Mazkur chora-tadbirlar kishilarning charchog`ini yozishga va mehnat qobiliyatini tiklashga va oshirishga yo`naltirilgan. Bunda piyoda yurish, sayohat, ekskursiyalar, turli xil tomoshalar, havo va quyosh vannalari, cho`milish (dengizda, daryoda, ko`lda) katta o`rin tutadi.

Hududiy rekreations tizimlarning to`rtinchi turi yangi xodisalar, jarayonlar va barcha narsalarni bilishga asoslangan. Bunda davolash, sog`lomlashtirish va umummustahkamlash tadbirlariga ko`proq e`tibor beriladi.

1.2. Rekreatsion geografiyaning tadqiqot usullari

Rekreatsion geografik tadqiqotlarda quyidagi usullar qo'llaniladi:

Tarixiy qiyoslash usuli. Atrofimizda sodir bo'layotgan iqtisodiy ijtimoiy hodisalar, ularning buguni va ertasi bevosita joyning tarixi bilan bog'liq. Fikrimizning isboti sifatida "quyidagi tarixiy voqeani esga olish zarur bo'lib qoldi: Buyuk Bobil qadimda sharqning eng go'zal va badavlat o'lkasi, ilmu-ma'rifat, iqtisod va ma'naviyat o'chog'i bo'lib kelganligi hammaga ma'lum. Lekin shunday ulug'vor o'lkaning vayronaga aylanib tarix sahifalaridan o'chib ketishiga bosqinchilar yoki dushman qo'shinlar emas, balki mamlakatning bosh mirobi yo'l qo'ygan bir xato sabab bo'lgan ekan. Ma'lumki, Bobilning xo'jalik tizimi ham xuddi bizdek ikki ulug' daryo ya'ni Tigr va Efrat suvlaridan foydalanishga asoslangan bo'lib, suvning ma'lum hajmi sug'orish ishlariga olinib, qolgan qismi esa dengizga oqib turgan. Shu tufayli qishloq xo'jaligida yaxshi hosil olib turishdan tashqari, qirliklardan yuvilib keladigan loyqa, qum, shag'al va tuz bilan hosildor yerlarning buzilishidan asrab qolgan.

Eramizdan avvalgi 582-yilda Xoldey shohi Navxudonosir katta imperiyaga hukmronlik qilish orzusida Misrni ham qo'shib oladi. Uning go'zal malikasi Nitokrisga uyulanadi. Albatta, malikaning ayrim injiqliklari va talablarini bajarishga majbur bo'ladi. Nitokris xonimning iltimosi bilan uning Misrdan kelgan qarindoshi bosh mirob vazifasiga tayinlanadi, unga katta mablag' va ishchi kuchi topshiriladi. Tez orada Bobil atrofidagi tekisliklardan yuzlab kilometrga katta kanal qazilib, minglab gektar yangi yerlarda sug'orish ishlari boshlanadi. Natijada, Efrat daryosining suvi kamayib, oqimi sustlashib qoladi va suv bilan kelgan loyqa aralash qum-shag'al va tuz eritmasi, yerlarga va kanallarga o'tirib qola boshlaydi, yerlarni sho'r bosishi oqibatida dehqonchilik qilishi mumkin bo'lmay qoladi. Bug'doyzor, arpazor va boshqa ekinlar keskin kamayib yo'qola borgach, juda katta otliq qo'shinlari ham, aholi ham qahatchilikdan qirila boshlaydi va nihoyat eramiz boshlarida shunday buyuk imperiyadan hashamatli qasrlarning xarobalari-yu, oppoq tuz bosgan bepoyon tekisliklar qoldi, xolos.

Iqtisodiy-matematik usul. Tadqiqot natijalarini tahlil etish uchun matematik usulni qo'llash katta imkoniyat yaratadi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy matematik usul ikki yoki undan ortiq holatlar o'rtasidagi ishonchli farqlarni qayd qilishi

mumkin. Asosan, sanoat ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hisoblashda bu usuldan keng foydalaniladi. Jumladan, ishlab chiqarish quvvatlari, mahsuldorligi yoki ular sal'dolarini hisoblab topish uchun bu usuldan foydalanish ancha qulay.

Iqtisodiy - matematik usul yordamida har doim ishonchli natijalarga erishib bo'lmaydi.. Chunki, o'rganilayotgan sohasining rivojlanishi yoki ko'rsatkichlarning pasayishiga turli ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatib turadi.

Statistik va ko'p o'lchamli statistik usul. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda statistik va ko'p o'lchamli statistik usul yordamida turli – tuman omillar ta'sirida shakllanuvchi holatlarni o'rganish imkonini beradi. Bu usul bugungi kunda iqtisodiy, sotsiologik, demokratik, psixologik va hatto pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda. Jumladan, iqtisodiyotda yillar yoki biror iqtisodiy rivojlanish bosqichdagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini taqqoslash, yillar davomidagi o'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblab topishda foydalanilsa, sotsiologik tadqiqotlarda aholining maishiy shart-sharoitlari holatini tahlil qilish yoki umumiy natijalarga erishishda, demokratik tadqiqotlarda aholining tabiiy o'sishi, mehnat resurslari dinamikasi yoki ularning ma'lum yillardan keyingi holatini prognozlashda, psixologik tadqiqotlarda aholi yoki uning ma'lum qatlamining ruhiy holatini tadbiq etish va uning ijtimoiy omillarini aniqlash kabi korreliatsion natijalarga erishishda foydalanish mumkin.

Qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli. Iqtisodiy va geografik tadqiqotlarda iqtisodiy qiyosiy tahlil usulini chetlab o'tib tadqiqotni amalga oshirish mumkin emas. Chunki, har qanday iqtisodiy va iqtisodiy geografik tadqiqotda o'rganilayotgan hudud boshqa hudud bilan yoki sohaning turli hududlardagi holati tahlil etiladi. Shuningdek, tabiiy geografik tadqiqotlarda o'rganilayotgan hudud landshafti, geomorfologiyasi, iqlimiga xos xususiyatlar qiyoslanadi. Ko'pgina holatda qiyosiy tahlil etish yordamida juda muhim muammolarni va bu muammolarning paydo bo'lish omillarini tadqiq etish imkonini beradi. Masalan, bir vaqtlar "Buyuk ko'llar" (Michigan, Gudzon, Yuqori ko'l) AQShning shimoli sharqidagi yirik baliqchilik markazi hisoblangan. Bu hududda sanoat korxonalarining rivojlanishi va dengiz transportlarini materik ichkarisiga kirib borishi uchun kanal qurilishi oqibatida "ilonbaliq" bu ko'llarga o'tib qoladi, asosan, uvildiriqlar bilan oziqlanadigan ilonbaliqlarning ko'payib ketishi ko'ldagi noyob baliqlarning keskin

kamayib ketishiga sabab bo`ladi. Natijada, XX asrning 50-yillariga qadar ko`l bilan bog`liq baliq sanoati butunlay inqirozga uchraydi. Xo`sh, endi savol tug`iladi. Bizda, O`zbekistonda (qolaversa Markaziy Osiyoda) “ilonbaliq” qanday paydo bo`lgan? Bizdagi suv havzalari okean bilan tutash emas-ku?! Hozirgi kunda “Navro`z” restorani rahbari O`. Daminov tomonidan “asyotra” balig`ini Toshkent viloyatida ko`paytirish yo`lga qo`yilgan va natija ham ancha samarali. Demak, bizda ham noyob baliqlarni ko`paytirish, shuningdek, qimmatbaho baliq mahsuloti “ikra” ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Umuman, qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli yordamida tabiat va ishlab chiqarishdagi juda dolzarb muammolarni va ularning paydo bo`lish omillarini aniqlash mumkin.

**Me`yoriy-balans hisobi usuli.** Me`yor va nisbat tushunchasi tabiatning eng muhim qonuniyatlaridan biridir. Hatto tabiat qonunlarining ham amal qilish me`yori mavjud. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda me`yor-balans hisobi usuli keng foydalaniladi. Ma`lumki, sobiq “Ittifoq” tuzumi davrida mahsulot ishlab chiqarish aholi jon soniga nisbatan rejalashtirilar edi. Bu esa bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida ilgari tuzum tarkibidagi mamlakatlar iqtisodiyotida juda katta o`zgarishlarni sodir etadi va kezi kelganda yangi vazifalarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Endilikda, mamlakatlar o`zlarining rekreatsion salohiyatlarini o`zlari baholashi va rayonlashtirishi lozim.

Kartografik tadqiqot usuli. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda kartografik tadqiqot usulidan foydalanish tadqiqot ishining vazifasida ko`zda tutilgan xususiyatlarining uyg`unligini ta`minlash uchun xizmat qiladi. Chunki kartalarda geografik va sotsial iqtisodiy elementlar uyg`unligi bir-birini to`ldirish bilan birga mamlakat yoki hududning tabiati va uning boyliklarini, iqtisodiyotini, madaniy-ma`rifiy va tarixiy xususiyatlarini o`zida jamlagan bo`ladi. Tadqiqot ishi davomida tadqiqotchi uchun kartalardagi ma`lumotlardan foydalanishda qulaylik yaratadi yoki tadqiqot ishi natijasida tuzilishi lozim bo`lgan kartaning mukammalligini ta`minlash uchun tadqiqotchiga namuna vazifasini o`taydi. Ba`zan tadqiqot vazifasida ko`zda tutilmagan

qirralarini yoki xususiyatlarini ham yoritish imkonini beradi va tadqiqot ishining mukammalligini oshiradi.

Geograf olimlar J.Qoraboev va T.Mirzalievlar ta'kidlaganidek, - "kartalardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- kartalarni bir biri bilan taqqoslash orqali ularda ifodalangan jarayon, voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;
- tabiiy resurslar, sotsial-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va tarixiy tahlil qilish va hozirgi holatini aniqlash;
- tabiiy va sotsial iqtisodiy voqea, hodisa va jarayonlar taraqqiyotini o'rganish, baholash va bashorat qilish;
- tabiiy va sotsial iqtisodiy voqea-hodisa va jarayonlarning geografik o'mini, chegaralarini va ularning miqdor hamda sifat ko'rsatkichlarini karta masshtabi aniqligida aniqlash va boshqalar shular jumlasidandir"[2].

Sotsiologik so'rovlar o'tkazish usuli. Sotsiologik so'rovlar usuli ayniqsa, aholining ijtimoiy demografik holatini o'rganishda ko'p qo'llaniladi. Anketa so'rovlari ma'lum maqsaddan kelib chiqib, keng qamrovli tuzilganligi tadqiqotni samarali o'tkazishda muhim ahamiyatga ega. Dastlabki umumiy savollar (yashash joyi, tug'ilgan yili, millati, jinsi, ma'lumoti, mutaxassisligi, mutaxassislik bo'yicha ishlayotgan yoki ishlamayotganligi, sababi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy ahvoli, farzandlar soni, bir hovlida necha kishi yashashi, oilaning o'rtacha yillik daromadi kabi savollar) har bir anketa so'rovlarida berilishi kerak.

Keyingi beriladigan savollar tadqiqot mavzusiga bevosita tegishli bo'lishi lozim. Masalan, aholining turli qatlamlarining dam olishga munosabati, ehtiyoji va talablari rekreatsion ehtiyojlarini keng o'rganish imkonini beradi. Tadqiqotchi anketa so'rovlari natijalarini qayta ishlash yo'llarini puxta o'ylab olish zarur.

Rayonlashtirish usuli. Xo'jalik tizimining tarixan shakllanishi, tabiiy joylashuvi, ishlab chiqarish shakllari va shart-sharoitlari e'tiborga olingan holda, ma'lum rayonlarga ajratib o'rganish zaruriyati yuzaga keladi yoki tadqiqot natijalariga ko'ra ma'lum sohaga ixtisoslashgan hududlari, sanoat tugunlari, qishloq xo'jaligi rayonlariga ajratish mumkin.

Professor A.Soliev ta'kidlaganidek,- "Iqtisodiy rayonlar xududiy mehnat taqsimotining natijasi bo'lib, ular avvalgi tizimda xalq xo'jaligini planlashtirish uchun asos bo'lar edi. Hozirda esa yagona markazdan turib davlat mulkini, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish yo'qoldi. Davlat planlashtirish tashkiloti (GOSPLAN) barham topdi, mulkchilik shakllari o'zgardi, u davlat tasarrufidan chiqarildi, ishlab chiqarish va boshqarishda monopoliyaga qarshi kurash, raqobat kuchaydi. Demak, shu ma'noda, modomiki, planlashtirish yo'qolar ekan, iqtisodiy rayonlar keraksizday bo'lib qoldi. Bu holat esa iqtisodiy geografiya fanining tub mohiyatiga ta'sir qiladi. Chunki uni iqtisodiy rayonlarsiz mutlaqo tasavvur etib bo'lmaydi. Aslida esa iqtisodiy rayonlar tizim tarkib qoidasiga muvofiq saqlanib qolaveradi, faqat ularning maqsadi o'zgaradi xolos. Hozirgi sharoitda iqtisodiy rayonlar davlatning ilmiy asoslangan mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi va uni ayni paytda ular mamlakat iqtisodiy makonining ichki xususiyatlarini o'rganishda ham, o'ziga xos usul sifatida zarurdir"[3].

Omillarni tahlil qilish usuli. Geografik tadqiqotlarda muammoning kelib chiqishi yoki uni tartiblash omillarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tadqiqot maqsadi va doirasiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

1. Tabiiy omillar
2. Iqtisodiy omillar
3. Demografik omillar
4. Etnik omillar
5. Ijtimoiy-psixologik omillar va boshqalar

Omillarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin: 1) sub'ektiv omillar ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yoki inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan omillar. Yuqoridagi demografik, ijtimoiy-psixologik, etnik omillar shular jumlasidandir. 2) Ob'ektiv omillar, ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan omillar. Masalan, qurg'oqchilik, sho'rlanish, toshqinlar, ko'chkilar, ob-havodagi keskin o'zgarishlar kabilar tabiiy omillar hisoblanib, ishlab-chiqarishning biror mavsumda izdan chiqishiga yoki butunlay inqiroziga olib kelishi mumkin.

Aerokosmik tadqiqotlar usuli. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda aerokosmik tadqiqot usulidan samarali foydalanish juda mazmunli va boy axborotlarga

ega bo'lish imkonini beradi. Aerokosmik suratlar yordamida daryolar o'zanlarining o'zgarishi, ekologik o'zgarishlar qonuniyatlari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Koinotdan olingan suratlar tabiiy muhitning barcha xususiyatlari va komponentlari to'g'risida axborotlar berish, xususan, rel'ef sharoitlari yoki shakllari, o'simlik qoplamasi xususiyatlari, suv, tuproq, inson mehnat faoliyati natijasida vujudga kelgan ob'ektlar, favqulodda tabiiy hodisalar (surilmalar, sel, ko'chki, eroziya va boshqalar) haqida to'liq va atroflicha ma'lumotga ega bo'linadi. Shuningdek, aerokosmik suratlar yordamida tuproq sho'rlanishi, cho'llashishning kengayishi, o'rmonli mintaqalarning kamayib borishidagi davriy o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Aerokosmik suratlar topografik, geomorfologik, gidrogeologik, gidrografik, tuproq, o'simlik, ekologik o'zgarishlar prognozi kartalarini tuzish imkonini beradi.

Iqtisodiy prognoz usuli. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda iqtisodiy prognoz qo'llanishi ishlab chiqarish hajmining ortishi yoki tabiat resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilab beradi. Ko'pchilik holatlarda prognoz, ya'ni kutilgan natija yuz bermasligi mumkin. Biroq, kutilgan natija yuz bermagan holatlarda shu soha yoki tarmoq tadqiqotchilari uning omillarini izlab topishga intiladi.

Prognoz – tadqiqot ishining sterjeni bo'lib, u tadqiqot jarayonini boshqaradi va uni ichki mantiqiga bo'ysundiradi. Ko'pgina mashhur tadqiqotchilar prognozning bo'lmaganidan ko'ra, uning xato bo'lsada, mavjudligini afzal ko'rishadi. Biror iqtisodiy yoki tabiiy jarayonni prognoz qilishda, ma'lum vaqt oralig'idagi ko'rsatkichlar yoki voqealar rivoji tahlil etiladi va shu asosda jarayonning kelgusidagi holati prognoz qilinadi. Prognoz qilishda ilmiy asoslangan biror qonuniyat yoki mexanizm mavjud emas. Ba'zan iqtisodchilar statistik prognoz usullariga asoslanib, biror tarmoqning istiqboli to'g'risidagi 5-10 yil keyingi prognozlarni keltiradi. Ko'pchilik holatda bu prognozlarning o'zini oqlamadi. Chunki, u yoki bu omillar ta'sirida kutilgan natija kuzatilmaydi. Shu bois, tadqiqot prognozlari inkor qilib bo'lmaydi. Ya'ni agar amalga oshmasa, tadqiqotchi oldiga “Nima uchun?” degan savolni qayta-qayta qo'yaveradi.

1.3. Rekrealogiyaning asosiy tushunchalari va vazifalari

Jamiyatning rekreatsion ehtiyoji – sotsial-madaniy va sotsial-mehnat qobiliyatlarining qayta tiklanishining oddiy va keng turidir. Dam oluvchilarning rekreatsion faoliyati esa – inson ma'naviy, ruhiy, jismoniy, intellektual quvvatining ortishi, ruhiyat tetikligini ta'minlashdagi ehtiyojning ta'minlanishidagi faoliyat yo'nalishidan iborat.

Geografiyaning turli tarmoqlarida rekreatsion tizimini o'rganish

Fan tarmoqlari	Tadqiqot jihatlar va echiladigan vazifa			
	Nazariy	Uslubiy	Amaliy	Axborot
Umumiy rekreatsion geografiya (V.S.Preobrajenskiy bo'yicha)	Rekreatsion faoliyatning shakllanish qonuniyatlari, dinamikasi, morfologik tuzilishi, hududiy rekreatsion tizimlarning birlashishi va hududiy differentsiyasi	Hududiy rekreatsion tizimlar (HRT)ni o'rganish metodlari ishlab chiqish.	HRTning o'zgarishi ni maqsadli prognozlash	O'z nazariyalari haqidagi axborotlarni boshqa fanlarga taqdim etadi.
Mintaqaviy rekreatsion geografiya	Rekreatsion rayonlashtirish tamoyillarini va uning tadqiqot predmeti haqidagi taassavurlarni ishlab chiqish	Rekreatsion rayonlarning shakllanish sharoitlarini tahlil etadi va omillarini aniqlaydi hamda regional xarakter rejalarini ishlab chiqadi	Rekreatsion rayonlar to'rtini ishlab chiqadi	Rekreatsion rayonlarga tavsif beradi, ularning rivojlanish istiqboli va muammolarini tahlil etadi
Tarmoqlar geografiyasi (iqtisodiy geografiya tabiiy geografiya va boshqalar)		O'rganilayotgan ob'ekt rekreatsion faoliyatga moslashishini baholash metodikasini ishlab chiqadi		HRTning shakllanishi va rekreatsion faoliyatni cheklovchi me'yoriy axborotlarni ishlab chiqadi

Rekreatsion tizim (RT) - dam oluvchilar guruhi, tabiiy va madaniy majmualar, texnik tizim, xizmat ko'rsatuvchilar, boshqaruv organlari kabi rekreatsion ehtiyojlarni ta'minlash guruhlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy – demoekologik tizim hisoblanadi. Dam olishni tashkil qiluvchilarning turistik faoliyati esa – aholining dam olishi uchun optimal

shart-sharoitlarni yaratishdagi rekreatsion tizimlarini shakllantirish va rivojlantirishdagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Rekrealogik tadqiqotlarning barchasida inson tirik kuchining tiklanishi jarayoni va uni o'rganish bosh vazifa sifatida qaraladi.

Birinchidan, jamiyat va kishilarning ko'plab ijtimoiy ma'naviy ehtiyojlari mavjud bo'lib, ular ham o'z navbatida bir qancha guruhlariga bo'linadi va bu guruhlar bo'sh vaqtni ko'ngilli o'tkazish sharoitlarni belgilash, jonli quvvatni tiklashdagi kishi ehtiyoji bilan bog'liq.

Ikkinchidan, kishining dam olishi va bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazishdagi bu kabi ehtiyojlar kundalik mehnat faoliyatidan jamoatchilik faoliyatiga jalb etish uchun maxsus sharoitlar yaratadi va rekreatsion faoliyatni uyg'otadi.

Uchinchidan, rekreatsion faoliyatning rivojlanishi natijasida tabiiy ob'ektlarni muhofaza etish, e'zozlash, madaniyat majmualarini tabiat bilan uyg'unlashtirish tizimini yaratishda shaxs ishtirokini ta'minlaydi va o'z navbatida rekreatsion ehtiyojni qanoatlantirishda jamoatchilik faoliyatini rivojlantiradi.

To'rtinchidan, barqaror rekreatsion tizimni yaratishda quyidagi omillar, ya'ni ehtiyoj, faoliyat yo'nalishi, tizimning yaratilish zaruriyati va uning elementlari, sistemani tashkil etuvchi ichki va tashqi aloqalar kabi muhim o'rin tutadi.

Beshinchidan, rekreatsion tizim faoliyat vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi.

Oltinchidan, o'z tavsifiga ko'ra, rekreatsion tizim sotsiologik, demografik, ekologik, makon va dinamik tizimlarning ham tarkibiy qismidir.

Shunday qilib, rekreatsion tizim rekologiyaning asosiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Rekreatsiya turizmning muhim asosini tashkil etib, insonning jismoniy, psixologik intellektual kuchi va quvvatini katta ishlab chiqarish jarayonidir. Rekreatsiya va rekreatsion faoliyat bilan bog'liq tadqiqotlar zamonaviy fan tizimining yangi, ya'ni yosh yo'nalishlardan biri.

1963-1975 yillarda hozirgi Rossiya Fanlar Akademiyasi geografiya instituti mutaxassislar jamoasi (V.S.Preobrajenskiy, Yu.A.Vedenin, I.V.Zorin, V.N.Lexonov, L.I. Muxina, L.S.Filippovich va boshqalar) tomonidan "Rekreatsion geografiyaning

nazariy asoslari” nomli monografiya tayyorlandi va bu monografiya keyingi shu kabi tadqiqotlar uchun asos sifatida xizmat qildi.

1992 yilda esa Rossiya xalqaro turizm akademiyasida V.S.Preobrajenskiy, Yu.A.Vedenin, I.V.Zorin, V.A.Kvartol`nov, V.M.Krivosheev, L.S.Filippovichlar muallifligida “Rekealogiya va rekreatsion geografiya nazariyasi” nomli yangi monografiya chop etildi. Unda ko`p yillik tadqiqotlar umumlashtirilgan va rekrealogiya qanday rivojlanishi lozimligi to`g`risida; rekreatsion tizim, rekreatsion ehtiyoj bosh omil sifatida, rekreatsion faoliyat tizimini tashkil etuvchi omil sifatida, rekreatsion tizim modeli haqidagi kontsepsiya yoki dasturi amal vazifasini o`taydi.

Rekrealogiya – lanshaft va uning xususiyatlarini bosh omil hisoblovchi birinchi fanlardan biri sifatida maydonga chiqdi. Uzoq tarixiy davrlar davomida qora metall, neft` qazib chiqarish, qayta ishlash va hatto qishloq xo`jaligiga faqatgina ehtiyoj mahsulotlari etkazib beruvchi ishlab chiqarish tarmog`i sifatida qoralar edi. Biroq, XX asrning ikinchi yarmiga kelib, turizmning rivojlanishi tabiatdan to`g`ri foydalanishning madaniy qarashlarning ommaviy tus olishiga sabab bo`ldi. Bu davrga kelib, fan-texnika tsivilizatsiyasining rivojlanishi natijasida har bir joy landshafti betakror va o`ziga xos ekanligini insoniyat anglab etdi.

A.A.Mins va V.S.Preobrajenskiylar fikriga ko`ra, hududiy tizimlarni tahlil qilish natijasida shunday xulosa qilinadiki, landshaftning mahalliy xususiyatlarini saqlab qolishda uning o`zgargan holatidan ko`ra, unga nisbatan munosabat o`zgarishini muhim deb hisoblaydi. Haqiqatda ham, insoniyatning landshaftlarga munosabati rekreatsion tizimning shakllanishida muhim o`rin tutadi. Masalan, kurort, dam olish, davolanish kabi rekreatsion faoliyatlar muhim spetsifik talablarga, ya`ni tabiat majmualari hisobiga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, landshaft faoliyati tamoyili ekologik-turistik tizim milliy bog`lar va turistik marshrutlarni loyihalashtirishda juda muhimdir.

Rekrealogiya va rekreatsion faoliyatning diqqatga molik jihati shundaki rekrealogiya ob`ekti inson bo`lsa, uning tadqiqot predmeti esa shaxs hayotining ma`naviy, jismoniy, ijtimoiy qismi bo`lish bo`sh vaqt faoliyatidir.

Rekreatsioon ehtiyoj yuqorida ta'kidlaganimizdek, aholining ma'lum qismi (dam oluvchilar) ning jismoniy, ma'naviy, ruhiy quvvatini tiklash ehtiyoji. Bu ehtiyoj faqatgina jismoniy, ruhiy, intellektual dam olishi to'g'ri tashkil etilgan faoliyat orqali amalga oshirilishi mumkin.

“Rekreatsioon faoliyat” bir guruh aholi yoki inson faoliyati bilan bog'liq tarixiy tushuncha va “rekreatsioon mashg'ulot” va “mashg'ulot tsikli” tushunchalari bilan ham bog'liq. Rekreatsioon faoliyat inson faoliyatining barcha turlari bilan bog'liq bo'lishi barobarida o'zining spetsifik qirralariga ham ega. Masalan, Yu.Vedenin rekreatsioon faoliyatni umuminsoniy, milliy, shahar va qishloqlarga xos qadriyatlar, madaniyatning etnik guruhlariga xos qirralarini anglashga ko'maklashishini ta'kidlagan.

Rekreatsioon faoliyatni tartiblash va bir vaqtning o'zida davriyligicha e'tibor qaratish juda muhim. Chunki faoliyat har doim tabiat ritmi va bosqichi (sutka, fasl yoki mavsum) dam oluvchilarning sotsial-maishiy faoliyati bilan bog'liq. Dam oluvchilar va dam olishni tashkil etuvchilar uchun rekreatsioon faoliyatni tashkillashtirishning xarakterli shakllaridan biri. Rekreatsioon faoliyat tsikllari rekreatsioon mashg'ulotlarni tiplarga ajratish asosida shakllanadi.

Oddiy rekreatsioon mashg'ulot (ORM) – rekreatsioon faoliyatning bo'linmas texnologik komponenti bo'lib, molekula atomlari singari bo'linmasdir. Biroq, sotsiologlar hisoblariga ko'ra, ularning yuz mingdan ortiq turlari mavjud. Ular soni yillar davomida ko'payib boradi. Shu bois, ularni ma'lum tiplarining tarkibiy qismi sifatida qoraladi. ORM lar xususiyatlari va vazifa bajarishdan kelib chiqib ma'lumotlar ko'lamini yirikroq guruhlariga aylantirish asosida rekreatsioon faoliyat tiplari (RFT) yuzaga keladi. Masalan, turistlar qiziqishi doirasidagi marshrutlarda biror muammo yuzaga kelishi mumkin. (Noqulay ob-havo yoki biror ob'ektning ta'mirlanishi jarayoni). Bunda ular qiziqishi doirasidagi boshqa marshrut taklif etiladi.

O'z navbatida, RFT lar umumlashtirilishi rekreatsioon faoliyat tsikllari tashkil qiladi.

Rekreatsioon faoliyat tsikllari (RFTs) –RFT larning o'zaro bog'liqligi va o'zaro shartliligi asosida, etakchi RFT bazasida tarkib topadi. Rekreatsioon faoliyatni tsikllarga

ajratishda tabiiy fasllar asosan e'tiborga olinadi. Masalan, Boysun bahori festivalini faqatgina bahorda yoki chang'i mavsumini faqat qishda tashkil qilish mumkin.

Shunday qilib, RFTs tizimli tarkibga ega va rekreatsiyaning ham sub'ekti ham ob'ektini ifoda etadi. Rekreatsion faoliyat tsikli yordamida rekreatsion ehtiyojni muvofiqlashtirish va uni amalga oshirishda shart-sharoitlar yaratadi va amalga oshirish texnologiyasini belgilaydi.

II BOB. REKREATSIYA RESURSLARI VA UNING HUDUDIIY RIVOJLANISHI SHART-SHAROITLARI HAMDA OMILLARI

2.1. Umumiy mehnat taqsimoti tizimida rekreatsiyaning roli, o'rni va rekreatsion korxonalar

Mehnat taqsimoti - ijtimoiy mehnatni mustaqil vazifalarni bajaruvchi mehnat turlariga ajralishi jarayonidan iboratdir. Mehnat taqsimoti, mehnat turlarini ko'paytirib, ularni ayrim kishilarga kasb sifatida biriktirib qo'yadi. Ishlab chiqarishda har xil mehnatni bajaruvchi kishilar qatnashadiki, ularni ingliz iqtisodchisi Adam Smit "Iqtisodiy individlar" deb atagan. Mehnat taqsimoti ana shu kishilarning o'zaro munosabatda bo'lishini taqozo etadi. Uning vositasida kishilar o'z faoliyati bilan bir-biriga xizmat qiladi, ya'ni kishilar boshqalarning aniq mehnati natijalaridan bahramand bo'ladilar.

Faoliyat turlari bo'yicha qaraganda, mehnat taqsimoti uch yo'nalishda rivojlanadi: umumiy, xususiy, qisman.

Umumiy mehnat taqsimoti - yirik mehnat turlarining bir-biridan ajralib, mustaqil ahamiyat kasb etishi, mehnatning yirik sohalarga bo'linishidir. Bunga mehnatning moddiy va nomoddiy, sanoat va qishloq xo'jaligi, transport va qurilish, savdo va maishiy xizmat, xalq ta'limi va sog'liqni saqlash sohalaridagi mehnat turlariga ajralishi misol bo'lishi mumkin. Shu jihatdan olganda, industrial mehnat, agrar mehnat, xizmat ko'rsatish mehnati mavjuddir.

Xususiy mehnat taqsimoti - yirik sohalar ichidagi mehnat taqsimoti. Muayyan sohadagi bir mehnatdan boshqasi ajralib chiqib ixtisoslashadi, mehnat turlari ko'payadi. Masalan, qishloq xo'jaligidagi agrar mehnat chorvachilik,

dehqonchilik, bog`dorchilik mehnat turlariga ajraladi. Sanoatda ham shunday jarayon yuz beradi, xususan undirish va qayta ishlash, og`ir va engil sanoat mehnat turlari ajralib chiqadi. Mashinasozlikni olsak, u erda avtomobilsozlik, traktorsozlik, samolyotsozlik, stanoksozlik kabi tarmoqlarga xos mehnat turlar paydo bo`lgan. Rekreatsion jarayonlar xususiy mehnat taqsimotining bir turi bo`lishi bilan birga umumiy mehnat taqsimotining shakllanishida muhim o`rin tutadi va uning tarkibiy qismidir.

Shuningdek, rekreatsion jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishida ixtisoslashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, yuqoridagi bo`limlarda ta`kidlaganimizdek, shart-sharoitlar yoki omillar rekreatsion faoliyatni rivojlanishida asosiy o`rin tutsa ham ixtisoslashuvsiz sohaning rivojlanishi mumkin emas, ya`ni ixtisoslashuv rekreatsion faoliyatni xarakatga keltiruvchi kuch vazifasini bajaradi.

Rekreatsion korxonalar. Har qanday tarmoqning xalq xo`jaligida tutgan o`rni mehnat resurslarining jamiyat mehnat taqsimoti tizimida ixtisosligi doirasida mehnat faoliyatini yuritayotgan kishilar salmog`iga ko`ra belgilanadi. Chunki, aholining salmoqli ulushi shu tarmoqda ishlashi davomida ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etadi va ularning turmush darajasida shu tarmoqning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Rekreatsion tarmoq” tushunchasini oydinlashtirish uchun ular faoliyatini birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi darajalariga ajratish lozim. Ular quyidagilar:

1. Birlamchi korxonlar rekreantlarga bevosita xizmat ko`rsatadi. Dunyo mamlakatlari tajribasiga ko`ra, bunday korxonlarning asosiy shakli sayohat va ekskursiya byuolaridan iborat. Ular rekreatsion rayonlardagi muassasalar va rekreantlar o`rtasida vositachilik bilan shug`ullanadi, ya`ni dam olish manzilgohlari va ularning bir-biridan afzallik xususiyatlari, yo`l transport vositalari, to`lov muassasalari va jarayonlari o`rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiradi. Rekreantlarni joylashtirish, xizmat ko`rsatish yuzasidan dam olish manzilgohlari bilan shartnomalar tuzadi. Bu turdagi korxonalar rekreantlarning asosiy yashash joyida joylashuviga qaramay, rekreatsion rayonlarning vakolatxonalarini (docherniy organizatsiya) eslatadi va bu rayonlar

to'g'risida rekreantlarga barcha ma'lumotlarni havola etadi, reklama faoliyatini yuritadi. Sobiq tizimda bu kabi faoliyat kasaba uyushmalari zimmasida edi. Shunday qilib, birlamchi rekreatsion rayonlarga tashishni ta'minlovchi va rekreatsion rayonlar ichki faoliyati bilan rekreant ehtiyojini muvofiqlashtiruvchi muassasalardir.

2. Ikkilamchi korxonalar. Bu turdagi korxonalarga rekreantlarning hayotiy ta'minoti uchun mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar kiradi. Ularga umumiy ovqatlanish, savdo, maishiy xizmat, ichki transport va boshqalar kiritiladi.

Ular vazifa bajarishi xususiyatiga ko'ra, rekreatsiyaning butun bir tarmog'i yoki tizimini eslatadi. Biroq, ularning vazifa bajarish miqyosi faqatgina o'sha rekreatsion rayon uchun xos bo'lib, qay darajada rivojlanligi rayonning rekreatsiya salohiyatiga bog'liq va xalq xo'jaligi tarmog'i singari tashqi ta'minotga ega emas.

3. Uchlamchi muassasalar – ular boshqa tarmoqlarning rekreatsion xizmatlarga jalb etilgan korxonalardir. Shu korxonalar orqali rekreatsion tarmoq boshqa tarmoqlar bilan aloqada bo'ladi. Bu turdagi korxonalar xalq xo'jaligining sanoat va qishloq xo'jaligi rekreantlar va mahalliy aholiga birdek xizmat ko'rsatadi. Ko'pincha, bu turdagi korxonalarga mebel, xo'jalik mollari (idishlar, elektr jihozlari) ishlab chiqaruvchi muassasalarni kiritish mumkin.

Albatta, bu turdagi korxonalarni rekreatsion tarmoq tarkibiga to'la kiritib bo'lmaydi, nimagaki, ular taklif etadigan tovarlarga doim ehtiyoj bo'lmaydi. Biroq, ularsiz rekreatsion faoliyatni to'la ta'minlash ham mumkin emas.

Har uchala turdagi korxonalarning rivojlanishi va faoliyat darajasi bevosita rekreantlar salmog'i va ularning talablari bilan bog'liq. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida talabdan taklifning yuqoriligi va rekreantlarning to'lov qobiliyatining pastligi rekreatsion faoliyatning susayishi ba'zan butunlay inqirozga yuz tutishiga olib keladi.

2.2. Rekreatsion salohiyatning tabiiy shart-sharoitlar bilan bog`liqligi

Tabiiy resurslar ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishda asosiy omillardan hisoblanadi. Tabiiy resurslar tushunchasini ta`riflashdan oldin, bu tushunchaning ko`pchilik mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinishini aytib o`tish kerak.

Akademik I.P.Gerasimov bilan professor D.L.Armandlar tabiiy resurslarga, bizning nazarimizda, eng to`liq ta`rif berganlar: “Tabiiy resurslar kishilar bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarur bo`lgan xilma-xil vositalardir”.

Yu.G.Saushkin elektr energiya olish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo`lgan tabiiy komponentlarni va sanoat uchun xom ashyoni tabiiy resurslarga kiritadi. Yirik olim A.A.Mints tabiiy resurslarni foydalanish shakllari va yo`nalishlariga qarab, iqtisodiy jihatdan klassifikatsiyalashni ya`ni tasnif qilishni ilgari suradi.

Iqlim resurslari — atmosfera havosi, shamol energiyasi va yog`inlardan iborat bo`lib, bitmas-tuganmasdir. Biroq, atmosferaning tarkibi va u bilan bog`liq bo`lgan sifati mexanik aralashmalar, sanoat va transport gazlari hamda radioaktiv moddalar bilan ifloslanishi natijasida ancha keskin o`zgarishi mumkin. Havo tozaligi uchun kurash resursni muhofaza qilishning eng muhim vazifalaridan biridir.



Kosmik resurslarga quyosh radiatsiyasi hamda dengiz suvlarining ko`tarilish va pasayishi (qalqishi) energiyasi kirib, ular ham amalda bitmas-tuganmasdir. Lekin, ular insonning faol xo`jalik faoliyati ta`siri ostida o`zgarishi mumkin. Masalan, katta sanoat shaharlarida atmosfera tarkibining o`zgarishi, ya`ni ifloslanishi, quyosh radiatsiyasi miqdoriga ta`sir qiladi. Chunonchi, atmosfera tarkibida karbonat angidrid gazining orta borishi radiatsiya miqdorining proportsional ravishda ortishiga sabab bo`ladi. Demak, atmosfera havosini muhofaza qilish, avvalo, uning tozaligi uchun kurash demakdir.

Tabiatning inson uchun ahamiyati. Tabiat va uning boyliklari inson uchun nihoyatda xilma-xil: iqtisodiy, sog`lomlashtiruvchi, tarbiyaviy, estetik va ilmiy ahamiyatga ega. Shunga muvofiq, tabiatni muhofaza qilish muammosi quyidagi asosiy jihatlariga bo`linadi.

1. *Iqtisodiy jihat.* Tabiatning moddiy ishlab chiqarishdagi ahamiyati aniq va ravshandir. Tabiat va mehnat — insonga kerak bo`lgan moddiy farovonlikning bosh manbalaridir. Inson iste`mol qiladigan har qanday mahsulot o`simliklar yoki hayvonlar, tuproq unumdorligi, foydali qazilmalar, havo va suv, quyosh radiatsiyasi yoki er ostining issiqliklari evaziga hosil qilinadi.

2. *Ilmiy jihat.* Tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish, avvalo, tabiat qonunlarini tadqiq qilish va ularga qat`iy amal qilishni taqozo etadi. Bunda tabiatning bir butunligi, doimiy o`zgarishda va rivojlanishda ekanligi, landshaftlarning ma`lum darajada o`zini-o`zi tiklash imkoniyati mavjudligi, ularning zonal-regional tarqalish va boshqa qonuniyatlarini chuqur tushunib etishi tabiatdan to`g`ri foydalanishdagi asosiy shartdir.

3. *Sog`lomlashtirish-gigienik jihat.* Tabiatning sog`lomlashtiruvchi ahamiyati har bir kishiga ma`lum. Sof havo, toza, musaffo suvdan bahramand bo`lish, o`rmonda dam olish, dengizda cho`milish, tog`larga sayohat qilish va hokazolar inson sog`ligiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi va davolashda keng foydalaniladi.

Binobarin, havo, suv va er qancha toza bo`lsa, suv havzalari, o`rmonlar, parklar, bog`lar qancha ko`p bo`lsa, aholining sog`ligi uchun shuncha yaxshi sharoit yaratiladi. Biroq, keyingi vaqtlarda yirik industrial rayonlarda atmosfera

havosi, suvlar va tuproqlar ifloslanishining kuchayishi hamda tabiatning o'zgarishi munosabati bilan aholining sog'ligi uchun xavf vujudga kelayapti. Shuning uchun ham keyingi vaqtlarda tabiatni muhofaza qilishning sog'lomlashtirish-gigienik jihatiga, ya'ni qulay ekologik sharoit yaratish masalasiga nihoyatda katta ahamiyat berilmoqda.

Tabiatni muhofaza qilishning tarbiyaviy jihatida shundan iboratki, tabiat qo'ynida bo'lish, kishiga yaxshi ta'sir ko'rsatib, uni xushfe'lroq, muloyimroq, olijanob qiladi, unda yaxshi hislar uyg'otadi. Tabiatning yoshlarni yuksak estetik ruhda tarbiyalashdagi roli, ayniqsa katta. Tabiat bilan to'g'ri munosabatda bo'lish yoshlar ongini har tomonlama rivojlantirib, ularda kuzatuvchanlikni o'stiradi, xarakterining yaxshi tomonlarini shakllantiradi, yuksak vatanparvarlik hissiyatini va tabiatga nisbatan ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish istagini ro'yobga chiqaradi. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilishning tarbiyaviy jihatida juda muhim ahamiyatga ega.

Tabiatni muhofaza qilishning estetik jihatida. Tabiat insonning ma'naviy boyligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tabiat kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida san'atning ilhomchisi, buyuk ijodning manbai bo'lib kelgan. Yozuvchilar, rassomlar va bastakorlarning eng yaxshi asarlarida tabiatning go'zal manzaralari tasvirlangan. Tabiat go'zalligi ijodiy kayfiyat yaratadi, ijodkorga ko'tarinki ruh beradi, odamda ijobiy his-hayajon uyg'otadi, did, his va tuyg'ularni tarbiyalaydi. Tabiatni muhofaza qilishning bu barcha jihatlari ma'lum darajada shartli ravishda ajratilgan bo'lib, aslida ko'pincha ular o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Hozirgi kunda, ya'ni fan-texnika taraqqiyoti davrida tabiatga va uning boyliklariga ta'sir ko'rsatish tobora ortib bormoqda. yerlardan maksimal foydalanish, yangi yerlarni o'zlashtirish, er osti boyliklarini qidirib topish va ularni ishga solish, suv, tuproq. o'simlik, hayvon resurslaridan foydalanish ko'lamini kengaytirmoqda. O'z taraqqiyotini oldindan uzoq muddatga mo'ljallay oladigan va tabiiy resurslardan o'zi belgilagan maqsadi yo'lida foydalanish imkoniga ega bo'lgan jamiyatgina tabiatdan oqilona foydalana oladi, degan xulosa chiqadi.

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishda tabiatda ro'y beradigan asosiy jarayonlarning rivojlanishi va o'zaro ta'siri qonuniyatlari haqidagi bilim katta ahamiyatga ega. Busiz tabiiy jarayonlarga baho berish, ularni hisobga olish, tabiatga ko'rsatilgan har qanday ta'sirning kelajakdagi oqibatini bilish mumkin emas. Insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish usullari mukammalasha borgan sari jadallashadi va uning samaradorligi oshib boradi. Bir siyosatchi va davlat arbobi shunday degan- "Tabiat qonunlari hisobga olinmasdan tuzilgan har qanday loyiha, insonlarga faqat baxtsizlik keltiradi".

Hozirgi zamon qurilish texnikasi, transporti, aloqa vositalari katta shaharlarda ilgarigi manzilgohlarga qaraganda, yuzlab, minglab marta ko'p aholi joylashishiga, melioratsiya cho'llarni bo'stonga aylantirishga, selektsiya esa hosildor ekin, mevalar, mahsuldor mollar yaratishga imkon beradi.

Sanoat rivojlanishi bilan atrof muhitning ifloslanishi kuchaydi. Keyingi yillarda sintetik materiallar, ko'mir, neft, gazni qayta ishlab mahsulot chiqarish, kimeviy o'g'itlar ishlab chiqarish, avtomobil, suv va havo transportining juda rivojlanib ketishi, buning ustiga bir qancha mamlakatlarda tabiatni muhofaza qilishning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi atrof muhitni ifloslanishiga olib keldi. Ishlab chiqarishdan chiqarib tashlanadigan chiqindi, qishloq xo'jaligida o'g'it, gerbitsid va boshqalar atrof-muhitni zararladi.

Tabiiy boyliklarning ancha kamayib qolganligi va atrof muhitning ifloslanayotganligi bir qancha mamlakat hukumatlarini tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini ko'rishga majbur etdi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda o'rmon kesish tartibga solindi, daryolarda baliqni ko'paytirish boshlandi, ov hayvonlari ko'paytirilmoqda, ovchilikda tartib o'rnatildi va muhofaza qilinadigan hududlar ko'paytirilmoqda.

2.3. Suv resurslari rekreatsion salohiyatni ta'minlovchi omil sifatida

Suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish. Biosferadagi jarayonlar va insoniyat jamiyatida suv katta ahamiyatga ega. Suvda vaznga ko'ra, 11, 11 foiz vodorod va 88, 89 foiz kislorod mavjud. Bu murakkab mineral tabiatda turli (gaz, suyuq va qattiq) hollarda mavjud bo'lib, modda va energiya aylanma

harakatida katta rol o'ynaydi. Suvning uch xil agregat holatda bo'lishi er sharining turli hududlarida ob-havo va iqlim sharoitining shakllanishida muhim ahamiyatiga egadir. Suv resurslariga daryo, ko'l, suv omborlari, kanallar, botqoqlik, dengiz va okean, er ostidagi suvlar, tuproq namligi, qutb va tog'lardagi muzliklar, hattoki, atmosferadagi namliklar ham kiradi.

Yer yuzasidagi barcha suvlar gidrosferani tashkil qiladi. Okean va dengizlarning umumiy maydoni quruqlik yuzasiga qaraganda, 2,5 barobar ko'pdir. Okean suvlari er sharining 3/4 qismini egallagan bo'lib, o'rtacha qalinligi 4000 m ga tengdir. Gidrosferaning 93,96 foizi okean suviga, 4,39 foizi quruqlikdagi daryo, ko'l va er osti suvlari, 1,65 foizi qutb va tog'lardagi muzliklarga to'g'ri keladi.

Suv yer yuzasidagi turli iqlimni vujudga keltirishda asosiy omillardan biri, suv bug'lari esa alohida ahamiyatga egadir. Atmosfera suvlarisiz joyning ob-havosini tasavvur etib bo'lmaydi. Havoda suv bug'larining miqdori er yuzasi va yil fasllariga bog'liq: ekvator havosida suv bug'lari eng ko'p bo'lsa, qutbiy o'lkalarda eng kam bo'ladi.

Yer yuzasidan yiliga 525100 ming km suv bug'lanadi. Okean va dengizlar yuzasidan ko'tarilgan bug' atmosfera havosi namligining asosiy manbai hisoblanadi. Atmosferadagi namlik bulutlarni vujudga keltiradi. Ba'zi bulutlarda yuzlab tonna suv bo'ladi. Bu ulkan suv massalaridan iborat bo'lgan nam havo oqimlari er yuzasida bir yerdan ikkinchi erga ko'chib, joylarga namgarchilik keltiradi, joyning havo haroratiga ham ta'sir ko'rsatadi. Okean va dengizlar yuzasidan bug'langan namlik kondensatsiya jarayonida suv tomchilariga aylanadi va bevosita okean va dengizlarga tushib, suvning kichik aylanma harakatini hosil qiladi. Atmosferaning xilma-xil yog'inlari quruqlik yuzasiga tushib tuproq namligiga, oqimga, ko'l va botqoqlikka, muzlikka aylanadi. Namlik yana bug'lanib, ba'zi erga singan va sinmagan qismlari suv oqimini vujudga keltirib, dengiz va okeanlarga qayta tushib, er sharida suvning katta aylanma harakatini hosil etadi. Suvning aylanma harakati jarayonida okean suvining to'la almashinishi 3000 yil davom etadi.

Yog`in quruqlik va okeanlar yuzasiga turli miqdorda tushadi va bug`lanadi. Masalan, okean yuzasiga tushadigan yog`inning o`rtacha miqdori 107 - 114 sm, bug`lanishi esa 116 - 124 sm, quruqlikka esa, o`rtacha 71 sm yog`in yog`ib, 47 sm suv qayta bug`lanadi. Qolgan 24 sm suv quruqlikdan daryolar orqali dengiz va okeanlarga quyiladi.

Atmosfera namligi suv va energiya almashuvida faol ishtirok etishi bilan bir qatorda, turli og`irlikdagi modda zarrachalarini o`zi bilan birga olib yuradi. Havoga ko`tarilgan tuproq zarralari, dengiz to`lqini ko`pigidan chiqqan tuz zarrachalari shamol ta`sirida uzoq masofalarga olib ketiladi. Hisoblarga qaraganda, birgina Orolbo`yi hududiga chang-tuz zarrachalari har gektar maydonga 520 kg, Orol dengizi qirg`oq bo`ylariga 260 - 800 kg, dengiz suvidan holi bo`lgan, ya`ni qurib qolgan yerlarga gektariga 1000 kg gacha tushadi.

Suv qudratli kuchga ega. urning hozirgi orografik xususiyati va rel`efi suvning uzluksiz faoliyati natijasida shakllandi va yanada murakkablashdi. Suv qattiq jinslardan tuzilgan tog` tizmalarini emiradi. Toshlar orasiga kirib qolgan suvlar muzlaganda yoriqlarni kengaytirib, mustahkam granit va bazal`tlarni ham yorib yuboradi. Suv kuchli erituvchi bo`lib, u tabiatda kimyoviy jihatdan toza holda uchramaydi. Suv qattiq tog` jinslarini hosil qilgan minerallarni emirib, eritib vodiylarga yotqizadi. Masalan, Amudarening birgina irmog`i Vaxsh har 1 km kv suv yig`ilish maydoni yuzasidan yiliga 2680 tonna loyqa oqiziqlar va jinslarni yuvib ketadi. Hozirgi kunda O`rta Osiyoda bundan ko`proq yuviladigan joy bo`lmasa kerak.

Organik dunyo va insoniyat jamiyatini suvsiz tasavvur qilish qiyin. Suv organizmlardagi biofizik va biokimyoviy jarayonlarda hamda ularning yashash muhiti sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Suvsiz hayot yo`q. Chunki o`simlik tanalarining 80-85 foizi, hayvon organizmlarining 60-75 foizi, meduza tanasining 99,7 foizi suvdan iborat. Yangi tug`ilgan chaqaloq tanasining 70 foizini, katta yoshdagi kishi organizmining 65 foizini suv tashkil etadi. 70 kilogramm og`irlikdagi o`rta yoshdagi kishining 45 kg.ga teng qismi suvdan iborat. Suv inson tanasining hamma a`zosida uchraydi, hatto suyakning 20 foizini ham suv tashkil

etadi. Inson iste'mol qiladigan sabzavot tarkibida 80-90 foiz, sutda 89 foiz, go'shtda 50 foiz suv bor.

Inson o'z tanasidagi namlikning bir xil bo'lishiga harakat qiladi, chunki tanasidan 12 foiz namlikni yo'qotgan odam halok bo'ladi. Inson suvsiz bir necha kungina yashashi mumkin, uning suvga bo'lgan bir kunlik fiziologik talabi 2,5 litrga teng. Bu raqam ish sharoitiga, tashqi muhit va havo haroratiga qarab farq qilishi mumkin.

O'simliklarda ham suvga talab katta. Suv o'simliklarni issiqdan, jazirama kunlarda qurib qolishdan saqlaydi. Urug'dan ko'kargan vaqtdan boshlab, o'simlikning suvga bo'lgan talabi orta boradi. Masalan, birgina kungaboqarni voyaga etkazish uchun 40 litrcha, 1 gramm quruq beda tayyorlash uchun 500 gramm suv kerak bo'ladi. Olinadigan hosilning har tonnasi uchun bug'doyga 1500 t, sholiga 4000 t, paxtaga esa 10000 tonna suv sarflanadi. Sutkasiga bir bosh karam bir killogramm suvni o'zidan o'tkazadi.

O'simliklarni suv bilan ta'minlab turishda tuproq xususiyati alohida ahamiyatga ega, chunki o'simlik namni tuproqdan oladi. O'simliklar namni tanasiga, so'ngra bargiga etkazib beradi va bug'latib yuboradi.

Tuproqdagi namlik miqdori tuproqning mexanik tarkibiga, joylashish hududiga va rel'efga bog'liqdir, Masalan, 100 kg qumoq erda 25 kg. 100 kg loyqada 70 kg namlik bo'ladi. Tuproqdagi namlik bir yilda yangilanib turadi, daryodagi suvlar 12 sutkada (yiliga 30 marta), atmosferadagi bug' - 9 sutkada (yiliga 40 marta) butunlay almashinib turadi.

Hozirgi vaqtda toza suvga bo'lgan ehtiyoj juda tezlik bilan ortib bormoqda, chunki insonning xo'jalik faoliyatini toza suvsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Insoniyat jamiyati suvni borgan sari o'z ehtiyoji uchun ko'p sarflamoqda (aholini suv bilan ta'minlashda, sanoatda, elektroenergiya olishda, sug'orish va o'zlashtirishda. transport, baliqchilik va boshqalar). Suvdan foydalanmasdan rivojlanadigan xo'jalikning biror sohasi yo'q.

Keyingi vaqtlarda er yuzi aholisini chuchuk suv bilan ta'minlash masalasi dolzarb muammoga aylanmoqda. Chunki, aholining tez sur'atlar bilan o'sishi,

sanoat va qishloq xo'jaligini shiddat bilan taraqqiy etishi suvga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Sanoat tarmoqlaridan qora metallurgiya, rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, kimyo, tsellyuloza-qog'oz sanoati suvni ayniqsa, ko'p ishlatadi.

Chuchuk suvga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Gidrosferaning faqat 2% ini tashkil etuvchi chuchuk suv daryo, ko'l, faol suv almashinish zonasidagi er osti suvlari, muzliklarda mujassamlangan. Chuchuk suv resursining 24,0 mln. km² teng qismi hozircha insoniyat juda kam foydalanayotgan muzliklarga to'g'ri keladi. Shaharlarda 1 kishi sutkasiga 200-600 litr, qishloqlarda esa, 100-200 litr suv sarf qiladi (suv quvurlari yo'q yerlarda 30-50 litrga to'g'ri keladi). A.M.Vladimirovning (1991) ma'lumoti bo'yicha turli qulayliklarga ega bo'lgan yirik shaharlar aholisining har bir kishisiga quyidagicha suv taqsim bo'ladi: Moskva va N'yu-York – 600 l/sutk., Parij va Sankt-Peterburgda 500, Londonda - 263 l/sutk.

er sharida aholini ko'payishi, yangi shaharlarni paydo bo'lishi oqibatida suvga bo'lgan talab ortib bormoqda. Masalan, 1900 yildan to 1950 yilgacha suvga talab 3 baravarga oshdi. 1970 yilda er shari bo'yicha suvga talab 120 km. ga 2000 yilda esa 180 km. ga etgan. Daryo suvlari er sharida bir tekisda tarqalmagan. Dunyo aholisining 72% yashaydigan evrosiyoda umumiy daryo suvning 31% iga yaqini oqadi. Agar evropada aholi jon boshiga yiliga 4,4 ming m³ Osiyoda 6,24 ming m³, Afrikada 13,1 ming m³ suv to'g'ri kelgan bo'lsa, Janubiy Amerikada 51,5 ming m³ suv to'g'ri keladi.

Yer kurrasi bo'yicha har bir kishiga yiliga o'rtacha 11 ming m³ daryo to'g'ri kelsa, maishiy xo'jalik ehtiyojlari uchun bir yilda ishlatiladigan suvning (234000 km) 20% i butunlay sarflanib ketadi, qolgan 80%i ifloslangan yoki yarim tozalangan holda daryolarga, kanal va ariqlarga tashlanadi va chuchuk suvni ifloslab yuboradi. Toshkent shahrida jon boshiga sutkada maishiy xo'jaliklar uchun 300 kub litrgacha suv sarflansa, bir yilda 0,2 kub km dan ortiq suv kerak bo'ladi. Bu Chirchiq daryosining yillik suv miqdorining faqatgina 3% ini tashkil etadi (Chirchiq daryosining yillik suv miqdori 6,9 kub. km).

O`rta Osiyoda Amudaryo va Sirdaryo suv havzalari asosiy suv manbalari hisoblanib, ularning irmoqlari ekinlarni sug`oradi va aholining ehtiyoji uchun sarflanadi. O`zbekistonda Amudaryo va Sirdaryodan tashqari, yana Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Chirchiq, Ohangaron kabi daryo suvlaridan foydalaniladi (Amudaryoning suv yig`ish havzasi - 227, 0 ming km³, suv sig`imi 78 km<sup>3</sup> yiliga, uzunligi 1440 km; Sirdaryoning suv yig`ish havzasi 150 km³, suv sig`imi 36 km³, uzunligi 2140 km).

Sanoat chiqindi suvlari tarkibida tirik organizmlar uchun xavfli bo`lgan har xil kislotalar, fenollar, vodorod sul`fati, ammiak, mis, rux, simob, tsianid, mish`yak, xrom va boshqa zaharli moddalar, yog`, neft mahsulotlari, har xil biogen moddalar mavjud bo`lib, ular sanoat korxonalarida ishlatilgan oqova suvlar bilan birga daryo, ko`l va suv omborlarga borib qo`shiladi.

Agar biror suv havzasini ifloslanish darajasini 100% deb olsak, shuning 42% mineral ifloslanish - har xil tuz, qum, ishqor, kislota. mineral yog`lar, shlak va boshqalar, 58% organik ifloslanish - kommunal xo`jaligi - shahar kanalizatsiyasi, hammom, kir yuvadigan joylar va boshqa sanitariya -sog`lomlashtirish tashkilotlari; teri, kog`oz - tsellyuloza, pivodan chiqadigan oqovalar; o`simlik moylari, mevalari, poliz ekin qoldiqlari; inson chiqindilariga to`g`ri keladi.

Suv kishi salomatligida va uning xo`jalik faoliyatida katta ahamiyatga ega. Aks holda, iflos suv turli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Kasalliklarni paydo qiladi, tarqatadi, sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonga salbiy ta`sir ko`rsatadi, mahsulot sifatini pasaytiradi, qimmatbaho asbob – uskunalarni ishdan chiqaradi, gidrotexnik, temir-beton inshootlarini, suv quvurlarini emiradi va juda katta iqtisodiy va ma`naviy zarar etkazadi.

2.4. Yer resurslari va atmosfera rekreatsion salohiyatni belgilovchi muhim omillar

Yer resurslarini muhofaza qilishni rejalashtirish va undan oqilona foydalanish er inson - tabiat majmuasada tabiatni boshqa unsurlari qatorida xalq xo`jaligi ishlab chiqarishining asosiy vositasi hisoblanadi. yer sanoatda faqat fundament, korxonalar turadigan joy vazifasini bajaradi. Qishloq xo`jaligida esa,

mehnat jarayoni va mahsulotlar yaratish bevosita urning xususiyatlariga, uning sifat holatiga va foydalanish xarakteriga bog'liqdir.

Yerdan foydalanishning tizimi va shakllari tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zgaradi. Ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi va shu bilan bog'liq ravishda odamlarning o'troqlashuvi erni dastlab qabilalar, so'ngra esa oilalar o'rtasida taqsimlanishiga olib keldi. Bu hol yerdan foydalanishning qat'iyroq shaklini yuzaga keltirdi. Quldorlik davrida yerdan asosan, quldorlarning o'zlari foydalangan. Feodalizmda yerdan foydalanishning ko'pgina shakllari paydo bo'lgan: feodal yer egaligi, krepostnoy dehqonlarning yerdan foydalanishi, ozod deqqonlarning feodalga abrok(juz'iya) to'laydigan er egaligi, keyinchalik yerdan foydalanish tizimi yerning xususiy mulk bo'lishiga yoki er ijarasi shartnomasiga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida alohida shaxslarga shaxsiy turar joy qurish, jamoa bo'lib bog'dorchilik, sabzavotchilik bilan shug'ullanish uchun yerdan foydalanishga ruxsat etiladi. Ular doimiy va vaqtinchalik bo'lishi mumkin. yerdan foydalanuvchilarga yerdan unumli foydalanish majburiyati yuklatiladi. yerdan mehnat qilmay, daromad olish, yerni sotib olish yoki sotish, hadya qilish, ijaraga qo'yish, o'z holicha boshqa shaxslarga berish taqiqlanadi. yer davlat va jamoat ehtiyojlari uchun zarur bo'lib qolganda davlat tomonidan qaytarib olinishi mumkin.

Sug'oriladigan yerlar 3,8 mln. ga dan iborat, shundan 1,4 mln.ga dengiz sathidan 400-500 m gacha bo'lgan balandlikdagi cho'l zonasida, qolgan qismi sur qo'ng'ir tuproq mintaqada, sug'oriladigan yerlar Farg'ona vodiysi, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron, Qashqadaryo, Surxon, Sherobod vodiylarida, Amudaryoning quyi qismlarida katta maydonlarni egallaydi. Lalmikor yerlar maydoni 600 ming ga dan ziyod. Ekin ekish uchun etarli darajada namlik to'planadigan yerlardan foydalaniladi. Lalmikor yerlar Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent, Jizzax viloyatlarida joylashgan. Cho'l yaylovlari O'zbekistonda eng ko'p maydon - 22, 8 mln. ga ni tashkil etadi, shundan 10 mln. ga sur-qo'ng'ir tuproqli, qariyb 13 mln. ga qumli yerlar va qumli tuproqlar, qolgan qismi o'tloq -taqir tuproqlar va taqir

hamda sho`rxoklardan iborat. Cho`l-yaylov joylardagi sug`orishga yaroqli yalpi maydon qariyb 12 mln. ga. 95% dan ortik qismini byeradi.

Hozirgi vaqtda yer resurslarini holati faqat iqtisodga ta`sir etmasdan, u ekologik sharoitga ham o`z ta`sirini ko`rsatmoqda. yer resursi tabiatning asosiy boyligi bo`libgina qolmasdan, u Respublikaning ijtimoiy - iqtisodiy o`sishiga ham ta`sir ko`rsatadi. Keyingi 35-40 yillar ichida O`zbekistonda yyerdan foydalanishda katta muvaffaqiyatlarga yerishildi. Sug`oriladigan yer maydoni 1,5 barobarga kengaytirildi. Ayniqsa, 1970 - 1985 yillarda sug`oriladigan yerlar 2,8 dan 4,0 mln. gektarga etdi yoki 43% ga ortdi. Yangi sugoriladigan yerlar butun O`zbekiston viloyatlari bo`yicha taqsimlanadi. (Asosan, Qashqadaryo - Surxondaryo, Samarqand - Jizzax, Qoraqalpog`iston - Xorazm regionlariga to`g`ri keladi).

Quruqlik yuzasida yer fondining strukturasi: dunyo bo`yicha 13393 mln. gektar (100%) shundan 4041 mln. gektarni (30, 1%) o`rmonlar, 2987 mln. gektar (22, 3%)ni o`tloq va yaylovlar, 1457 mln. gektar (10, 8%)ni haydaladigan va ekin ekiladigan yerlar, qolgan 4908 mln. gektar (36,8%)ni kumli cho`llar, muzlik va qorliklar, qishloq va shaharlar, sanoat ob`ektlari ishg`ol qilgan yerlar egallagan.

Atmosfyera yer po`stiga fizikaviy, kimyoviy, biologik ta`sir etadi va yer yuzasida issiqlik, namlikni tartibga solib turadi. Atmosfyera yerning himoya qobig`idir, chunki u tirik organizmlarni turli ul`tra-binafsha nurlar va kosmosdan tushadigan meteoritlarning zararli ta`siridan himoya qiladi. Atmosfyera bo`lmaganda edi, yer yuzasida ham Oydagi kabi hayot bo`lmas edi, yer yuzasi kunduzi 100 gradus qiziganda, kechasi esa minus-100 gradus sovigan bo`lar edi.

Quyosh va shamol enyergiyasi, atmosferada havosi va yog`in-sochin iqlim resurslari bo`lib, insoniyat jamiyatda katta ahamiyatga ega. Quyoshdan fazoga juda katta miqdorda issiqlik enyergiyasi tarqalib turadi. yer yuzasining har bir kvadrat kilometr maydoniga 2500000 ot kuchiga teng enyergiya tushadi. Quyosh enyergiyasi atmosferaning yuqori qatlamlarida yutilib, yer yuzasiga juda oz miqdorda etib keladi.

Insoniyat quyosh enyergiyasidan o`z ehtiyoji uchun qadimdan foydalanib kelgan. Keyingi vaqtlarda quyosh enyergiyasidan AQSh, Yaponiya,

Frantsiya kabi davlatlar yaxshigina foydalanmoqdalar. Turkmaniston, O'zbekiston, Gruziya, Armaniston, Moldaviya, Ukraina kabi davlatlarning bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari arzon quyosh enyergiyasidan xalq xo'jaligida foydalanish yo'llarini topmoqdalar.

Insoniyat qadimdan tugamaydigan resurslardan biri bo'lgan shamol enyergiyasidan foydalanib kelgan. AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Gyermaniya, Daniya davlatlarida turli quvvatlarga ega bo'lgan kuchli shamol elektr stantsiyalari qurilgan. O'zbekiston shamol enyergiyasiga boy, ammo mamlakatda bu arzon enyergiya turidan kam foydalanilmoqda. yerdagi hayotni havosiz tassavur etish qiyin, shuning uchun ham toza havo muammosi hozirgi kunda o'ta dolzarb bo'lib qoldi. Atmosfyera havosi har doim aralashib turgani uchun, uning kimyoviy tarkibi sayyoramizning hamma joyida asosan bir xildir.

Havo qobig'i asosan azot (78,09%) - K_2 ; kislorod (20,95%) - dan iborat bo'lib, ular atmosferada gaz tarkibining 99% ini tashkil etadi, qolgani esa boshqa (argon (Ag) - 0,93%; karbonat angidrid (SO_2) - 0,03%; neon, geliy, kripton, ksenon va boshqalar) gazlardir. Gazlarning biri ko'payib, ikkinchisi kamayib ketishi tirik mavjudot hayotini muvozanatdan chiqarib yuboradi va halokatga olib borishi mumkin.

Atmosferadagi azot asosan yerdagi mikroorganizmlar faoliyati natijasida yuzaga kelib, biologik jarayonlarda unchalik rol o'ynamaydi. yerdagi tog' jinslarida mujassamlashgan azot atmosferadagi azotga qaraganda, 50 baravar ko'pdir. Atmosferada yerkin holatda uchraydigan kislorod yashil o'simliklar mahsuloti bo'lib, tirik organizmlarning ajralmas qismi va hayot manbai hisoblanadi. Inson hayoti uchun ko'p enyergiya kyerak: ko'p enyergiya olish uchun esa kislorod zarur. Inson kuniga o'rta hisobda 9 kg havo bilan nafas oladi. Inson o'rtacha umr (75 yosh) davomida 700000 kub metr havoni oladi.

Atmosferada ozon (O_3) va suv bug'larining bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Atmosferadagi suv bulut va tumanlarda mayda tomchi va muz kristalchalari holida uchraydi. Suv bug'lari asosan 10 km gacha bo'lgan balandliklarda uchraydi. Atmosferaning quyi qismida uchraydigan karbonat angidrid (SO_2) o'simliklarning

fotosintez jarayonida faol qatnashadi. Karbonat angidrid vulkanlar otilishi, yoqilg'ilar yonishi, organik moddalarning chirishi va organizmlarning nafas olishi natijasida paydo bo'ladi. SO_2 nisbatan og'ir bo'lib, chuqur yerlarda (eski quduq, shaxta va boshqa joylarda) uchraydi.

Atmosfyera changlari havo qobig'ining ajralmas qismidir. Juda mayda zarrachalar organik va noorganik jarayonlar tuproq qatlamining emirilishi (nurashi), vulkan hodisalari, o'rmon, dasht va torf yong'inlari, dengiz suvining bug'lanishi oqibatida paydo bo'lgandir. Atmosfyerada juda ko'p miqdorda kosmik changlar bo'lib, yer yuzasiga yiliga 2-5 mln. tonna kosmik chang tushadi. Atmosfyeradagi turli chang yadrolari yer landshaft qobig'ini o'zgartirishda katta ahamiyatga egadir. Chunki gaz holidagi suv bug'lari yadro atrofiga yig'ilib, suv tomchilarini hosil etadi. Changlar quyosh radiatsiyasini yutish qobiliyatiga ega va yer kurrasini nurlanishdan saqlaydi.

Atmosfyeradagi changlar yer yuzasining rel'ef xususiyati, tuzilishi va balandligiga qarab, turli miqdorda uchraydi. Masalan, shahar ustidagi 1 kub sm. hajmdagi havoda 100000 dona chang zarrasi bo'lsa, okean ustidagi 1 kub sm.

hajmdagi havoda 100 dona chang zarrasi bo'ladi. 1952 yili Londonda bir hafta davom etgan iflos tuman natijasida 4000 kishi, keyinchalik (3 oy mobaynida) yana bir necha ming kishi nobud bo'lgan. 1962 yil dekabr oyida bu shaharda



qurumdan 750 kishi o'lgan. Tsement zavodlari ham atmosferani ko'plab ifloslaydi. Tsement changlari uzoq-uzoq joylarga tarqalishi mumkin. Hozirgi

vaqtda zavodlarga chang zarrachalarini tutib qoladigan uskunalar o`rnatilib, millionlab tonna qimmatbaho qurilish matyeriallari tejab qolinmoqda.

Keyingi vaqtlarda kimyo sanoatining qoldiqlari atmosferaga havosini ko`plab ifloslamoqda. Kimyo sanoat tarmoqlaridan chiqqan zaharli gaz va birikmalar havoga aralashib, zaharli gazlar miqdorini oshirib yubormoqda. Oqibatda, kimyo zavodlari va kombinatlariga yaqin bo`lgan yerlarda fauna, floralar zarar ko`rmoqda va ba`zi o`simliklar butunlay nobud bo`lmoqda. Natijada, bunday yerlarda tabiiy landshaft o`z xususiyatini yo`qotib, o`zgacha tus olmoqda. Havoda tarkibidagi karbonat angidrid, is gazi, azot, xlor, fosfor, fenol, ftor va boshqalarning ko`p miqdorda bo`lishi inson salomatligiga ta`sir etmay qolmaydi. Natijada, ko`pgina kishilar astma, rak kabi kasalliklarga duchor bo`lishadi.

Bioximik olim Eyri Geygan-Smit 1950 yili atmosferada ozonning turli azotli birikmasi nihoyatda xavfli ekanligini aniqladi. Ozon kimyoviy reaksiyaga juda tez kirishib, o`simlik barglaridagi xlorofill turlarini buzadi, rezina va ip-gazlamalarni emiradi. Azotli birikmalar esa ko`z, o`pka kasalliklariga olib keladi va havoda ko`lansa hid tarqatadi, Kimyoviy birikma va qurumlar tarixiy va arxitektura yodgorliklarini ham buzmoqda. Venetsiya. Sankt-Petyerburg, Kyol`n, Milan, London va boshqa shu kabi qadimiy shaharlar ko`chalaridagi nodir yodgorliklar va haykallar emirilmoqda yoki korroziyaga uchramoqda. Atmosferaning ifloslanishida transport vositalarining roli katta: Avtomashina, samolyot va boshqalar katta miqdorda kislorod ishlatadi. Masalan, Amerika - evropa orasida uchadigan birgina supyerreaktiv laynyer 8 soat ichida 50 tonna kislorod sarf qiladi. Shuncha miqdordagi kislorodni 25-50 ming gektar yerdagi o`rmon 8 soatda etkazib beradi.

Transport turlari inson salomatligi uchun zararli bo`lgan karbonat angidrid, is gazidan tashqari, turli birikmalar ham chiqaradi. Avtotransportdan chiqadigan mayda zarralar, jumladan, avtomobil` pokrishkasidan chiqadigan rezina zarralari nafas olish uchun, umuman, hayot uchun xavflidir (birgina avtomobil` pokrishkasi emirilishi natijasida, bir yilda 10 kg changsimon rezina zarrasini havoga aralashtiradi).

Atmosfyerada va tabiiy muhitning ifloslanishida radioaktiv moddalarning ta'siri juda xavflidir. Radioaktiv moddalarning sun'iy ravishda yer yuzasida tarqalishi asosan, ikkinchi jahon urushidan keyin boshlandi. Atmosfyerada, suv osti va quruqlikda turli kuchga ega bo'lgan ko'plab atom, vodorod, neytron bombalari portlatib sinab ko'rildi. Oqibatda, atmosferaga radioaktiv moddalar tarqaladi. Birgina atom bombasini portlatish natijasida 200 dan ortiq turli radioaktiv moddalar paydo bo'ladi, ba'zilar esa radioaktiv zanjirlarini hosil etib, bir elementdan ikkinchisiga o'tadi.


Portlatish natijasida atmosferaga ko'tarilgan radioaktiv moddalarning yirik zarralari quruq chang holatida yoki yog'in-sochinga qo'shilib bir necha soat ichida yana yerga qaytib tushishi mumkin. Ularning radioaktiv ta'siri juda kuchli. Juda mayda radioaktiv moddalar esa atmosferaning yuqori katlamlarigacha ko'tarilib, bir necha minglab kilometr masofani ifloslashi mumkin. Hozirgi vaqtda bunday zaharli moddalarni baland tog'larda, Antarktida muzliklarida ham uchratish mumkin.

Shunday qilib, atmosferaning ifloslanishi xalq xo'jaligiga katta iqtisodiy zarar etkazadi.

III BOB. O'ZBEKISTONDA TURIZM VA REKREATSION JARAYONLARNING RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI


3.1. Jahon rekreatsion tizimida O'zbekistonning tutgan o'рни

Butun dunyo turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha band aholining 8 foizi turizm uchun xizmat ko'rsatuvchi muassasalar ishchilari hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlariga ajratilgan investitsiyalarning ham 7 foizi, umumiy iste'mol xarajatlarining 11 foizi turizm hissasiga to'g'ri keladi.



Bugungi kunda turizm mamlakatlar xazinasiga yuqori daromad keltiruvchi tarmoq sifatida shakllanmoqda. Agar 1950 yillarda dunyo bo'yicha turizm keltiradigan umumiy daromad 2,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 1970 yillarda uning hajmi

17,9 mlrd. dollarga va 2000 yilda 176,1 mlrd. dollarga etdi.



Turizm sanoati xizmat ko'rsatish tizimining muhim tarmoqlaridan biri, uning ahamiyati bugungi kunda kun sayin ortib bormoqda. Turizmning rivojlanishi mamlakat iqtisodiy infrastrukturasi rivojlanishiga

sezilarli ta'sir ko'rsatadi va valyuta tushumlarini farqlay olish lozim bo'ladi.

Biz yuqorida rekreatsiyani bo'sh vaqt, dam olish kabi tushunchalar bilan bog'liqligini ta'kidladik, bir so'z bilan aytganda, rekreatsion faoliyat kishining o'zi

sevgan, unga rohat bag`ishlaydigan mashg`ulotidir. Inson, qulupnay terish bilan ham, baliq ovlash orqali ham yoki biror boshqa mashg`ulot bilan band bo`lish bilan ham dam olishi mumkin.

Umuman, turistik faoliyatning rekreatsion faoliyatdan farqi shundaki, turizmدا iste`molchining maqsadi kengroq va salomatlikni tiklash birinchi o`ringa qo`yilmaydi. Turizm ko`proq insonning ruhiyati va ma`naviy qiziqishlari bilan bog`liq.

Zamonaviy turizm sanoati – iqtisodiyotning eng eng rivojlanayotgan va serdaromad tarmoqlaridan biridir. Uning hissasiga dunyodagi yalpi daromadning qariyb 10 foizi to`g`ri keladi. Dunyo miqyosida turizmning o`sish tempi yiliga 4-5 foizga ortmoqda.

O`zbekistonning tarixi va madaniyati nihoyatda boy va turizm tarmog`ining rivojlanishi uchun yuqori salohiyatga ega. Hudud “Buyuk Ipak yo`li”da joylashganligi bois, tarixda savdo va madaniy aloqalar markazi sifatida dunyo mamlakatlari ichida shuhrat qozongan. Respublika hududida 4000 ga yaqin arxitektura yodgorliklari bo`lib, ularning ba`zilari 2500 yillik uzoq tarixdan guvohlik beradi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi tarixiy obidalar dunyo tarixchilari va sayyohlarining doimo diqqat markazida bo`lib kelgan.



Bu shaharlar nafaqat, o`zlarining yodgorliklari, masjidlari, madrasalari, maqbaralari bilan, balki, bu hududlarda Al Xorazmiy, Al Beruniy, Ibn Sino, At Termiziy, Amir Temur, Ulug`bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk o`zbek olimlari yashab ijod qilganligi bois ham mashhurdir. O`tgan mustaqillik davri mobaynida

O`zbekiston turizm sanoatida sezilarli o`zgarishlar yuz berdi, ya`ni mamlakatda turizmning rivojlanishi bilan bog`liq siyosiy qarashlar o`zgardi, turizmni rivojlantirish me`yoriy hujjatlari ishlab chiqildi va qabul qilindi. Turizmning barcha turlarini

rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari ishlab chiqildi va hozirda takomillashmoqda. Shuningdek, kichik turistik majmualarga xorijiy investitsiyalar jalb etilmoqda, yangi turistik yo`nalishlar ochilmoqda, tarmoqni rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlanmoqda va xizmat ko`rsatishni jahon andozalariga tenglashtirishga intilmoqda.

3.2. Rekreatsion rayonlarni belgilash, uning hususiyatlari, shakllanish shart-sharoitlari va omillari

Geografik fanlarning predmetidan biri tadqiqot ob`ektlarini turli maqsadlarda rayonlashtirishdir. Zero, rayonlashtirish orqali muayyan tabiiy geografik komplekslarning holati baholanadi, tegishli amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va tavsiya etiladi, ularning optimallashtirish xususiyatlari nazorat qilinadi, kelajak istiqbollari bashoratlanadi. Ushbu hududiy tabaqalashish yoki qismlarga ajratish nafaqat geografiyada, balki barcha tabiiy, gumanitar, ijtimoiy fanlarga ham xosdir.

Rayon so`zi amaliyotda ikki xil ma`no kasb etadi. Birinchisi, muayyan bo`lgan geografik, geologik, botanik, iqtisodiy va shu kabi hudud. Ikkinchisi, sobiq Ittifoq yoki hozirgi Rossiya Federatsiyasidagi ma`muriy bo`linma.

Rekreatsion rayon tushunchasi – umumiy mehnat taqsimotining ajralmas qismi bo`lib hududiy mehnat taqsimoti bazasida tarkib topadi. Shunga ko`ra, rekreatsion rayon – ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Hudud rekreatsion rayon darajasida ajratilishi yoki baholanishi uchun rekreatsion faoliyat ma`lum darajada rivojlangan tarmoq sifatida ixtisoslashgan bo`lishi lozim.

Sobiq Ittifoq tuzumi davrida rekreatsion faoliyat asosan yoz mavsumida eng yuqori pog`onagacha o`sar edi. Chunki, aholining aksariyat qismi yozgi ta`tilni dengiz bo`yi, kurort manzilgohlarda o`tkazishni istar edi. Bu davrda aholining (yozda) katta sonidagi qismi mavsumiy migratsiyani hosil etar edi. Shu bilan birga, rekreantlarga xizmat ko`rsatish uchun rekreatsion hududlarga tovarlar va xizmatlar oqimi ham turli hududlardan kirib kelar edi.

Biroq, 1980 yillarning ba`zi tadqiqotchilari fikriga ko`ra, rekreatsion rayon shakllanishi uchun hududda turizm, qishloq xo`jaligi (qishloq xo`jaligi iste`mol mahsulotlari bilan rekreantlarni ta`minlash maqsadida), sanoat ishlab chiqarishi

(rekreantlarni zarur sanoat mollari bilan ta'minlash maqsadida) majmualari bo'lishi kerak. rekreatsion rayonlashtirishdan bu qarashlar o'z davridayoq inkor etilgan edi. Haqiqatda, rekreatsion rayonlarning har birida rekreantlarni jalb etuvchi o'ziga xos omillar borki, ular har bir rayon uchun betakror. Masalan, "Omonxona", "Anjir Ota" suvlari tabiiy oqimidan ko'p hajmda ishlab chiqarish imkoniyati mavjud emas yoki "Chortoq"dagi tabiiy shart-sharoitni boshqa hududda tashkil etishning imkoniyati yo'q. Lekin, rekreantlar maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash uchun jihozlar (mebellar, sanoat mollari) ni boshqa hududlardan iste'molchi talabiga ko'ra olib kelish mumkin.

Professor A.Nig'matov o'z ishlarida O'zbekiston hududini 14 ta "Ekoturistik rayon"ga ajratgan. Uning fikriga ko'ra, ekoturistik rayonlashtirish - ma'lum bir hududni, uning ekoturistik holati, imkoniyati va kelajak istiqbollari nuqtai nazaridan bo'limlarga ajratishdir.

Bu bo'limlar quyidagilar:

- I. Ustyurt ekoturistik rayoni
- II. Orol va Orol bo'yi rayoni
- III. Amudaryo rayoni
- IV. Qizilqum rayoni
- V. Nurota rayoni
- VI. Zarafshon rayoni
- VII. Aydarko'l rayoni
- VIII. Sirdaryo rayoni
- IX. Chirchiq rayoni
- X. Farg'ona rayoni
- XI. Turkiston rayoni
- XII. Qashqadaryo rayoni
- XIII. Hisor rayoni
- XIV. Surxondaryo rayoni

Olim O'zbekiston hududini ekoturistik rayonlarga ajratishda hududiy bir butunlik, kompleks yondashuv, genetik o'xshashlik va individuallik qoidalariga amal qilgan va quyidagi geoeologik printsiplarga amal qilish lozimligi ilgari

surilgan:

- geotizmlarning antropogen, tabiiy va tabiiy-texnogen o`zgaruvchanligi;
- ekoturizmni boshqa turizm turlari bilan birgalikda olib borish samaradorligi;
- madaniylashtirilgan landshaftlarda agroekoturistik imkoniyatlarning yuqoriligi;
- ekologik tadbirlarni olib borish imkoniyatining yaratilganligi.

Sobiq Ittifoq tuzumi davrida O`zbekistondagi rekreatsion manzilgohlar bugungi kun darajasida ahamiyat kasb etmas edi. Chunki, rekreatsion manzilgohlarni belgilashda dengiz muhim omil hisoblanar edi. Albatta, suv resurslari bilan ta`minlanganlik darajasi rekreatsion faoliyatda muhim ahamiyatga ega. O`zbekistondagi rekreatsion salohiyatni, Rossiya, Xitoy, AQSh, Kanada, Avstraliya kabi yirik hududlarni o`z qamroviga olgan davlatlar bilan taqqoslab bo`lmaydi. Biroq, insonning tabiat bilan muloqotini chegaralash yoki cheklash nihoyatda mushkul jarayon. Davlatlar tabiatni muhofaza etish maqsadida doimo qonunlar, qarorlar qabul qiladi va fuqarolarning tabiatga munosabati shu qonunlarga muvofiq tartibga solinadi.

Bugungi kunda, O`zbekistonda ham davlat qo`riqxonalarini va rekreatsion manzilgohlar o`rtasida chegara bo`lishi lozim.

Rekreatsion rayonlarning shakllanish shart-sharoitlari va omillari.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan insonlarning atrof-muhitga ta`siri ham o`sib boradi. Inson tabiat bilan, ya`ni o`simlik va hayvonot dunyosi hamda er osti va er usti boyliklari bilan o`zaro muloqotda bo`ladi. Tabiat va inson o`rtasidagi munosabat ma`lum bir qonunlar orqali boshqariladi, ularga rioya qilmaslik ertami kechmi, albatta, halokatga olib keladi [2].

O`zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, davlat tabiiy qo`riqxonalarini qat`iy muhofaza qilinadigan hududlar bo`lib, ularda yovvoyi tabiatning yil bo`yi kuzatib boriladi. Hozirgi kunda respublika hududida 9 ta davlat qo`riqxonasi mavjud bo`lib, ularning asosiy vazifalaridan biri tabiat landshaftlari, noyob va nodir hayvon, o`simlik turlarini tabiiy ahvolda saqlab qolish va keyinchalik boshqa hududlarni ular bilan boyitishdan iborat. Mavjud ikkita bog`ning vazifasi esa, go`zal landshaftlar va ularning yovvoyi vakillarini muhofaza qilish bilan birga, ekologik turizmni rivojlantirish,

insonlarning tabiat bilan aloqasini kuchaytirishdir. Ushbu qo`riqxonalarining er maydoni respublika umumiy er maydonining 0,5 foizini, milliy bog`lar esa, 1,3 foizini tashkil etadi [3].

Bodayto`qay qo`riqxonasi Qoraqalpog`iston Respublikasida Amudaryo del`tasida joylashgan bo`lib, uning maydoni ming gektar. Qo`riqxona iqlimi mo``tadil, yozi issiq va quruq, qishi esa o`rtacha sovuq. Yillik o`rtacha harorat $+11^{\circ}\text{S}$ bo`lib, qishda harorat  $-5^{\circ}\text{S}$  gacha tushib ketadi. Yozda esa harorat  $+25^{\circ}\text{S}$  gacha ko`tariladi, ba`zan undan ham yuqori bo`ladi. Hududdagi yillik yog`inlar miqdori 80mm. ni tashkil qiladi. Bodayto`qay qo`riqxonasi to`qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan. Hududda qushlardan qora kalxat, tustovuq, uzun dumli burgut kabi noyob qushlar mavjud. Sut emizuvchilardan Buxoro bug`usi, to`ng`iz ko`p uchraydi.

*Zarafshon qo`riqxonasi* Zarafshon daryosining o`rta oqimida joylashgan bo`lib, maydoni 2330 gektar. Qo`riqxona to`qay landshafti, undagi o`simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun 1959 yilda tashkil etilgan. Qo`riqxona iqlimi kontenental, subtropik. Hududdagi o`rtacha yillik harorat $+18^{\circ}\text{S}$, havo harorati iyul` oylarida  $+27^{\circ}\text{S}$  dan ham ortib ketadi. Qishi birmuncha iliq bo`lib, -1°S gacha soviydi xolos. Yillik yog`in miqdori 300 mmni tashkil etadi. Qo`riqxonada Turkiston do`lanasi, chakanda kabi noyob o`simliklar ko`p. Hayvonlardan har xil kemruvchilar-yumronqoziq, qunduz, qkulardan tustovuq va boshqalar muhofaza qilinadi.

*Zomin qo`riqxonasi* G`arbiy Turkiston tizmalarining shimoliy yon-bag`rida joylashgan bo`lib, uning maydoni 15600 gektar. Qo`riqxona iqlimi mo``tadil, yillik o`rtacha harorat  $+468^{\circ}\text{S}$  bo`lib, qishda harorat -6°S gacha tushib ketadi. Yozda esa harorat $+15^{\circ}\text{S}$ gacha ko`tariladi, ba`zan undan ham yuqori bo`ladi. Hududdagi yillik yog`inlar miqdori 400 mm. ni tashkil qiladi. Zomin qo`riqxonasi tog` landshaftiga xos o`simliklar, hayvonlar va qushlarni muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan. Hududda archa, terak, tog` lolasi o`sadi, qushlardan qora laylak, burgut kabi noyob qushlar mavjud. Sut emizuvchilardan qo`ng`ir ayiq, silovsin yashaydi va ular qizil kitobga kiritilgan.

*Kitob qo`riqxonasi* Zarafshon tog`i yon-bag`rida joylashgan bo`lib, uning maydoni 5378 gektar. Qo`riqxona iqlimi quruq subtropik, yozi issiq va quruq, qishi esa o`rtacha sovuq. Qishda harorat -5°S gacha tushub ketadi. Yozda esa harorat $+18^{\circ}\text{S}$ gacha ko`tariladi, ba`zan undan ham yuqori bo`ladi. Hududdagi yillik yog`inlar miqdori 600 mm. ni tashkil qiladi. Kitob qo`riqxonasi 300-400 mln. yillar ilgari yashagan hayvonlarning o`zlarini va tog` jinslarini muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan. Hududda Sharq chinori, Zarafshon archasi, anzur piyozi o`sadi, qushlardan burgut, kaklik kabi noyob qushlar mavjud. Sudralib yuruvchilardan Turkiston ko`zoynakli iloni, echkiemar ko`p uchraydi.

*Surxondaryo davlat qo`riqxonasi* Ko`hitang tog` tizmasi yon bag`rida joylashgan. Qo`riqxona iqlimi quruq subtropik, qishi esa o`rtacha sovuq. Yillik o`rtacha harorat  $+15-18^{\circ}\text{S}$  bo`lib, qishda harorat -0°S ni tashkil etgani holda iliq kechadi. Yozda esa harorat $+28-30^{\circ}\text{S}$ gacha ko`tariladi, ba`zan undan ham yuqori bo`ladi. Hududdagi yillik yog`inlar miqdori 300-400 mm. ni tashkil qiladi. Surxondaryo davlat qo`riqxonasi tog` landshaftidagi endemik o`simliklarni muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan. Hududda sut emizuvchilardan burama shoxli echki, oq tirnoqli ayiq, Turkiston silovsini, to`ng`iz yashaydi. Qushlardan burgut, sudralib yuruvchilardan kapcha ilon (kobra) mavjud.

*Nurota qo`riqxonasi* Nurota tog`larining markaziy qismida 400-2000 m. mutloq balandliklarda joylashgan bo`lib, uning maydoni 22135 gektar. Qo`riqxona iqlimi kontenental, qishda harorat -2°S gacha tushub ketadi. Yozda esa harorat $+15^{\circ}\text{S}$ gacha ko`tariladi. Yillik o`rtacha harorat $+15^{\circ}\text{S}$. Hududdagi yillik yog`inlar miqdori 250-550 mm. ni tashkil qiladi. Nurota qo`riqxonasi tog` va to`qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan. Hududda bodom, yong`oq, archa o`sadi, qushlardan qirg`iy, burgut kabi noyob qushlar mavjud. Sut emizuvchilardan Qizilqum qo`yi ko`p uchraydi.

*Chotqol qo`riqxonasi* O`zbekistonda, G`arbiy Tyanshanning Chotqol tizmasida joylashgan bo`lib, uning maydoni 35 ming gektar. Qo`riqxona iqlimi kontinental, qishi esa o`rtacha sovuq. Qishda harorat -15°S gacha tushib ketadi. Yozda esa harorat $+25^{\circ}\text{S}$ gacha ko`tariladi. Hududdagi yillik yog`inlar miqdori 700-900 mm. ni tashkil qiladi.

Chotqol qo`riqxonasi tog` landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan. Hududda sut emizuvchilardan Tog` echkisi, bug`u, oq timoqli ayiq ko`p uchraydi. Qo`riqxonada mingdan ortiq o`simlik turi bor.

*Hisor qo`riqxonasi* Xisor tizmasining g`arbiy yon bag`irlarida joylashgan bo`lib, uning maydoni 873995 gektar. Qo`riqxona iqlimi mo``tadil, yozi issiq va quriq, qishi esa o`rtacha sovuq. Yillik o`rtacha harorat $+14^{\circ}\text{S}$ bo`lib, qishda harorat  $-5^{\circ}\text{S}$  gacha tushib ketadi. Yozda esa harorat  $+25-28^{\circ}\text{S}$  gacha ko`tariladi, ba`zan undan ham yuqori bo`ladi. Hududdagi yillik yog`inlar miqdori 100-150 mm. ni tashkil qiladi. Xisor qo`riqxonasi tog` landshaftidagi o`simliklar, qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan. Hududda qushlardan burgut, kaklik kabi noyob qushlar mavjud. Sut emizuvchilardan oq timoqli ayiq, silovsin, qor qoplani, to`ng`iz ko`p uchraydi. O`simliklardan archa, tog` pistasi, bodom, yong`oq o`sadi.

*Qizilqum qo`riqxonasi* Amudaryo o`rta oqimining o`ng sohilida joylashgan bo`lib, uning maydoni 3,9 ming gektar. Qo`riqxona iqlimi keskin kontinental, quruq. Qishi esa o`rtacha sovuq. Qishda harorat -5°S gacha tushib ketadi. Yozda esa harorat $+25-29^{\circ}\text{S}$ gacha ko`tariladi, ba`zan undan ham yuqori bo`ladi. Hududdagi yillik yog`inlar miqdori 8-100 mm. ni tashkil qiladi. Qizilqum qo`riqxonasi cho`l landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan. Hududda qushlardan Amudaryo qirg`ovuli, kalxat, o`rdaklar mavjud. Sut emizuvchilardan Buxoro bug`usi, xongul ko`p uchraydi.

3.3. Rekreatsion rayon belgilari va O`zbekistonning rekreatsion zonalari

Respublika aholisi dam olish maqsadida erta bahordan toki kech kuzga qadar,



tog` yonbag`ridagi suv omborlari bo`ylariga oshiqishadi. Lekin, har bir rekreatsion tabiat va uning qayta tiklanmas ne`matlariga munosabatlarini bir xilda ijobiy baholab bo`lmaydi. Shu o`rinda ekologik madaniyatni

rivojlantirish muhim o`rin tutadi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o`rni faqatgina davlat xizmati bilangina emas, balki jamoatchilik rolini oshirish bugungi “Demokratik huquqiy davlat qurish” yo`lidagi ekologik bilimlarni targ`ibot qilish, aholining ekologik saviyasini ko`tarish borasida bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin, shunga qaramay, bu sohada bir qator kamchiliklar mavjud.

Shu bois, yuqorida ta`kidlaganimizdek, rekreatsion manzilgohlarda insonning dam olishi tabiat bilan muloqotini rivojlantirish uchun qulay shart sharoitlar yaratilishi lozim va bu manzilgohlarda tarkib topgan rekreatsion majmualar iqtisodiy daromad keltirishi, aholining sog`ligi va mehnat qobiliyatini tiklashga, tabiatni muhofaza qilishga salmoqli hissa qo`shishi kerak bo`ladi.

Biz yuqorida rekreatsion rayonlarni ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya ekanligini e`tirof etdik. Chunki, rekreatsion rayon shakllangan hududda xizmat ko`rsatish bilan bog`liq bir necha tarmoqlar: aloqa, tibbiyot, mehmonxona va oziq-ovqat muassasalari tashkil topadi. Yangi ish o`rinlari shakllanadi, joylik aholining bandligi ortadi.

Zero, rekreatsion rayonlarning shakllanishi tabiat yoki joyning geografik o`rni bilan bog`liq ekan, o`z navbatida joyning iqtisodiy-geografik o`rning ahamiyati ortadi.

Shu o`rinda, rekreatsion rayonni iqtisodiy-geografik jihatdan ta`minlovchi shart-sharoitlarni 5 ta turga ajratish mumkin:

1. Rekreatsion rayonning rekreantlar oqimini hisobga olish (rekreantlarni qabul qilish salohiyati, rekreantlarning ijtimoiy va yosh tarkibi, mahalliy yoki xorijiy turistlar ekanligi);

2. Rekreatsion rayonning transport-geografik shart-sharoiti, rekreantlarning yashash joyi va dam olish joylari oralig`idagi transport xizmatining qulayligi;

3. Rekreatsion rayonga tashqi ta`minot bazalarining mahsulot etkazib berishdagi qulayliklari, asosan tez buziluvchi qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etkazib berish va ularning iste`mol uchun yaroqliligini ta`minlash;

4. Rekreatsion rayonning qo`shimcha ishchi kuchlari bilan ta`minlovchi hududlarga yaqinligi. Asosan rekreantlar eng ko`p bo`ladigan vaziyatlarda;

5. Rekreatsion rayonning boshqa rekreatsion rayonlarga nisbatan tutgan o`rni;

Rekreatsioon rayonning ichki ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini quyidagi omillar belgilaydi:

1. Turizm va dam olish maskanlarining xom ashyo texnik bazasining rivojlanganlik darajasi va hududiy tarkibi. Shuningdek, rekreantlarga xizmat qiluvchi sohalar faoliyati

2. Hududning iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish infrastrukturasi rivojlanganlik darajasi.

Bu hududdagi shart-sharoitga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatish mumkin. Birinchidan, rekreatsioon hududdagi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlasa. Ikkinchidan, hududda atrof-muhitning ifloslanishi, hudud resurslaridan foydalanish me'yorlarining buzilishi holatlarini keltirib chiqaradi.

3. Mehnat resurslari. Rekreatsioon rayonning rivojlanish shart-sharoitlarini ularning tanqisligi yoki yo'qligi murakkablashtiradi. Biroq, bu holat rejalashtirilgan iqtisodiyotga xos edi. Bugungi kunda, ya'ni bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat resurslarining oqimi serdaromad, bo'sh ish o'rinlari ko'p hududlarga yo'nalgan.

Sobiq Ittifoq tuzumi davrida Chortoq, Chimyon, Oqtosh, Nanay, Shohimardon, Quvasoy, Xo'ja Obigarm zonalari mintaqaning kurort zonalari sanalgan. Respublikada bugungi kunda ham bu hududlar iqlimi, tabiiy shart-sharoitlarining o'ziga xosligi bilan rekreantlarni jalb etadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar respublikadagi suv omborlaridan rekreatsioon maqsadlarda foydalanishni tavsiya etishadi. Biroq, rekreatsioon rayonlarning joylashuviga e'tibor qaratsak, ular asosan, ochiq dengizlar qirg'oqlarida yoki daryolar del'tasida joylashgan. Shu o'rinda, respublikani ichimlik suvi va qishloq xo'jaligini sug'orish suvlaridan foydalanish uchun qurilgan suv omborlaridan rekreatsioon maqsadlarda foydalanish taklifi o'rinli emas. Chunki, respublika aholisi va qishloq xo'jaligini toza suv bilan ta'minlash salomatlikni ta'minlashning eng muhim masalalaridan biridir.

Rekreatsioon manzilgohlar tog'-oraliq botiqlarida joylashuvi maqsadga muvofiq. Bunday manzilgohlarga "Xumsan", "Xonjiza" manzilgohlarini misol keltirishimiz

mumkin, yana Nurota, Hisor, Ko`hitang tog`lari rekreatsion manzilgohlarni ko`paytirish va ular salohiyatini oshirish imkoniyatlari mavjud.

3.4. Rekreatsiyaning rivojlanishida festivallar, ko`rgazmalar, xalq bayramlari va sportning ahamiyati

O`zbekiston tsivilizatsiyalar to`qnashgan mintaqalardan birida joylashgan mamlakatdir. Uning tarixi nihoyatda boy va betakrordir. Tarixda xalqimiz tabiatdagi har bir o`zgarishni (bahorning kelishi, hosil yig`imini) bayram sifatida to`kin-sochinlikdan, yaxshilikdan nishona sifatida qabul qilgan. Bayramlar va an`analar ijtmioiy va shaxsiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi va kishilar o`zaro munosabatlarining turli jihatlari va shakllarida namoyon bo`luvchi muayyan urf-odatlar va an`analar, ahloqiy printsiplar va huquqiy tartibotlarning tarixan shakllangan yig`indisidir.



O`zbek xalqining asrlar davomidagi ijtimoiy ma`naviy qarashlari xalq og`zaki ijodi orqali ajdodlardan avlodlarga etkazib kelingan. Bugungi kunga kelib, o`lka tarixi, etnografiyasi, madaniyati va ma`naviy merosi jahon jamoatchiligining diqqatini o`ziga tortmoqda. Respublikada “Sharq taronalari”, “Boysun bahori” festivallarining “Navro`z” bayram sayllarining o`tkazilishi xorijlik sayyohlarning, sharqshunos, etnograf olimlarining o`lka tarixi, madaniyatiga bo`lgan qiziqishini orttirmoqda.

O`z urf odatlari marosimlari mazmuniga ko`ra, dehqonchilik va chorvachilik uchun baraka so`rovchi xalq hech qachon o`zganing eriga ko`z tikmasligini, xalqining bag`rikeng, dilkash ekanligini O`zbekistonga tashrif buyurgan har bir sayyoh anglab etmoqda. Shuningdek, O`zbekiston milliy guruhlarini xorij mamlakatlarida o`z milliy an`analari, qarashlarini ifoda etuvchi chiqishlari bilan xorijliklar e`tiborini tortmoqda.

Respublika mustaqilligining dastlabki yillaridanoq, mamlakatda sportni rivojlantirish sport sohasida zafarli yutuqlarni qoʻlga kiritgan sportchilarni maʼnaviy, moddiy ragʻbatlantirish toʻgʻrisida meʼyoriy hujjatlar qabul qilindi. Oʻtgan qisqa muddat ichida jahon sport sahnasida Oʻzbekistonning mavqei yuksaldi. Bugungi kunga kelib, maktablar oʻquvchilari oʻrtasida “Umid nihollari”, talabalarning “Universiada” uchrashuvlari va turli yoshdagi sportchilarning xalqaro sport musobaqalari muntazam oʻtkazilib borilmoqda.

Umuman, rekreatsiyaning rivojlanishida festivallar, koʻrgazmalar xalq bayramlari va sportning ahamiyati yuqoridir. Turizm inson hayotiy faoliyatining koʻpgina tarmoqlarini oʻz ichiga oladi. Shuning uchun turizmni oʻrganish madaniyatshunoslik, tarix, antropologiya, psixologiya, sotsiologiya iqtisodiyot kabi fan tarmoqlarini oʻrganish bilan uzviy bogʻliq. Oʻzbekiston dunyo tarixchilari va keng jamoatchiligiga hali targʻib etib ulgurmagan boy tarixga ega. Respublika mustaqillikka erishgunga qadar, Kushonlar davri Sulton Saodat, Qirqqiz arxitektura yodgorliklari toʻgʻrisida gʻishtdan qurilgan. “Qirqqiz” xarobalari hozirga qadar saqlanib kelingan. Maʼlum boʻlishicha, tarixda “Qirqqiz” ga dunyoning turli mamlakatlardan, jumladan, Frantsiya kelib tahsil olgan. Ular Sharq madaniyatini oʻrganishgan. “Qirqqiz”da saroy ayollari tarbiyalangan.

Sulton Saodat, Hakim At Termiziy, Iso Termiziy maqbaralari esa, mustaqillikka qadar oʻta ayanchli koʻrinishga ega boʻlib qolgan edi. Bu allomalar oʻz davrining yirik olimlari, maʼrifatparvar va hadisshunos boʻlishgan.

3.5. O`zbekiston tabiati va uni muhofaza qilish zaruriyati

O`zbekiston O`rta Osiyoning markaziy qismida, ya`ni Amudaryo bilan Sirdaryo oralig`ida joylashgan mamlakat. Hududining shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoliy-sharqida, janubiy nuqtasi $45^{\circ} 31'$ shimoliy kenglikda Termiz shahrida, g`arbiy nuqtasi Ustyurt platosi bo`ylab, 50° sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa, Farg`ona viloyatining sharqiy qismiga  $37^{\circ} 10'$  uzunlikda joylashgan. O`zbekistonning maydoni 448,9 ming kv. km bo`lib, hududining 78,7 foizi tekislikdan va 21,3 foizi tog`lardan iborat. Mamlakat hududida Talas, Ugom, Qorjontog`, Piskom, Chortoq, Qurama, Turkiston, Morguzar, Nurota, Zarafshon, Hisor, Boysuntog`, Surxontog`, Ko`hitangtog`, Bobotog`, Farg`ona, Oloy tizma tog`lari, Qoraxotin, Mingbuloq, Asakaovdan botiqlari mavjud.

O`zbekistonning tabiiy geografik o`rni Markaziy Osiyodagi boshqa respublikalari tabiatidan keskin farq qiladi. Mamlakat hududi shimoldan janubga qadar 325 km.ga cho`zilgan. er yuzasining tuzilishi (tekisliklar, tog`lar) dagi tafovutlar iqlim hosil qilishda muhim o`rin tutadi. Masalan, mamlakat janubida subtropik iqlim mintaqasi hukm sursa, shimolda shimoliy g`arbdan esuvchi sovuq havo massalari to`g`ridan-to`g`ri kirib keladi. Mamlakat hududi bo`ylab o`rtacha yillik harorat ham turlicha. Masalan, o`rtacha yillik harorat Nukusda  $+11,0^{\circ}\text{S}$  bo`lsa, Toshkentda $+13,9^{\circ}\text{S}$, Termizda esa $+17,8^{\circ}\text{S}$ ga teng.

O`zbekistonning tekislik qismida yozda o`rtacha yillik harorat $+26+30^{\circ}\text{S}$ ga etadi. Janubda asosan $+31+32^{\circ}\text{S}$ ga etadi. Ba`zan Termizda harorat  $+50^{\circ}\text{S}$  gacha etadi. Umuman, yoz quruq issiq kechadi. Qishda yanvar oylarida, harorat shimolda  $-10^{\circ}\text{S}$  gacha etadi va janubi-sharqqa tomon isib boradi. Termizda o`rtacha harorat qishda $+3^{\circ}\text{S}$ ni tashkil qiladi. Ba`zi yillarda Arktika havo massalarining kirib kelishi natijasida qish sovuq keladi va harorat Ustyurtda  $-36-37^{\circ}\text{S}$  gacha, Toshkentda  $-28-30^{\circ}\text{S}$  gacha, Surxondaryoda  $-18-20^{\circ}\text{S}$  gacha sovib ketadi. Shunga muvofiq ravishda yog`inlar ham turlicha taqsimlanadi. Eng kam yog`in miqdori Ustyurt, Quyi Amudaryo va Qizilqumga to`g`ri kelib, 100 mm atrofida. O`zbekistonning adir va tog` oldi qismida yillik yog`inlar 300-550 mmni va baland tog` mintaqalarida 550-900 mm ni tashkil qiladi.

O'zbekistonning yirik daryolari Amudaryo va Sirdaryo bo'lib, ular asosan qor va muzlardan, qisman er osti suvlaridan to'yinadi. O'zbekistonning tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot olami juda xilma-xil. Ularning taqsimlanishida iqlim va rel'ef muhim o'rin tutadi. Mamlakat hududi bo'ylab cho'llarda asosan sho'rxok, taqirlar, tekislik, va vodiylarda bo'z tuproqlar, tog' oldi va tog' mintaqalarida sur va qo'ng'ir tusli tuproqlar keng tarqalgan.

Cho'llarda bug'doyiq, yulg'in, shuvoq, sho'ra, burchoq, isiriq, saksovul kabi o'simliklar, tog' oldi va baland toq mintaqalarida betaga, ravoch, bodom, pista, do'lana, o'rik, olma, ravoch, archa, Turkiston qayini, yong'oq, terak kabi o'simliklar o'sadi. O'zbekiston hayvonot olamining tarqalishida ham iqlim va rel'ef muhim ahamiyat kasb etadi. Cho'l va adir mintaqasida asosan, kaltakesak, ilon, ko'rsichqon, yumronqoziq, sut emizuvchilardan: cho'l mushugi, jayron, oqquyruq, qora quloq, tulki xongul va boshqalar yashaydi. Tog' va tog' oldi mintaqalarida oq sichqon, oq suvsar, o'rmon sichqoni, o'rmon olmaxoni, qunduz, qo'ng'ir ayiq, silovsin, bo'ri, tulki, sirtlon, bo'rsiq, quyon yashaydi. Qushlardan burgut, tasqara, kaklik, bulbul kabilar uchraydi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston tabiatini muhofaza qilishga katta e'tibor qaratildi. Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va uning tasarrufidagi boshqaruv hamda nazorat organlari tuzildi. Tabiatni muhofaza qilish va uni takror barpo etish doirasidagi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Shuningdek, noyob va o'ta noyob o'simlik va hayvon turlari aniqlanib, ularni muhofaza etish maqsadida O'zbekiston "Qizil kitobi" chop etildi hamda qo'riqxonalariga ahamiyat ortdi.

Xorijga aholining sayyoh sifatida chiqishi tahlil etilganda, O'zbekistondagi jami aholining 1,7 foizi sayohatga chiqqan bo'lib, shuning 20 foizi Rossiyaga, 80 foizi Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britaniya hissasiga to'g'ri keladi (bunda bir sayyoh bira to'la bir necha davlatga chiqishini e'tiborga oling). O'zbekiston fuqarolari bundan tashqari Ukraina, Qozog'iston, Turkiya, Xitoy, BAA, Janubiy Koreya, Isroil, Gretsiya davlatlariga ham safarga ko'p chiqishadi. 2004 yilda O'zbekistonda 261,6 ming xorijlik sayyoh tashrif buyurgan. Tashrif buyurgan turistlarning asosiy qismi, ya'ni 76,2 foizi

Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi.

Hozir O'zbekistonda 500 dan ortiq turistik tashkilotlar va firmalar faoliyat yuritmoqda. Bu tashkilotlarning dunyoning 24 mamlakatida o'z vakillari va sheriklari bor. 4-5 xalqaro darajadagi 11 ta mehmonxona majmuasi faoliyat yuritmoqda. 2-3 xalqaro darajali mehmonxonalar soni esa 80 tadan oshdi. Turistlarga xizmat ko'rsatish uchun 150 ta sanitar-kurort va fizioterapevtik sog'lomlashtirish maskanlari barpo etilgan. Ularning aksariyati shifobaxsh mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlari mavjudligi, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlari qulayligiga ko'ra yuqori qiymatga ega.

Tarixda bayon etilishicha, Baqtriya emirilib, uning xarobalari o'rnida paydo bo'lgan Kushonlar imperiyasi juda qisqa muddat ichida qudratli davlatga aylanadi. Imperator Kanishka (78-123) hukmronlik qilgan davr oxirlarida Kushon davlati o'z hududini nihoyatda kengaytiradi va zamonasining buyuk davlatlari Rim, Parfiya va Xitoy bilan bir qatorda turadi. Kanishkaning din sohasidagi siyosati natijasida Kushon imperiyasida jumladan, O'rta Osiyoda ham to arab istilosigacha buddizm dini keng tarqala boshlagan. Hattoki, Xitoyga ham buddizm Kushon imperiyasi orqali tarqalgan. Buddizmning eng muhim asarlaridan biri Amitabs Sutra Kushon mamlakatidan Xitoyga 147 yilda olib keltirilganligi to'g'risida Xitoy solnomalari xabar beradi

X U L O S A

Mamlakatlarning rekreatsion faoliyati va salohiyati bevosita ularning rivojlanganlik darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy sharoiti ya'ni, tabiat komplekslari, texnik infratuzilmalarining rivojlanganligi sanoat tarmog'i, xizmat ko'rsatish tizimi, madaniyat, san'at ilm fanining rivojlanganligi bilan, ya'ni bir so'z bilan aytganda, mamlakatlarning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni bilan bog'liq.

O'zbekiston tabiatininng ajralmas qismi bo'lgan rekreatsion resurslar hozirgi kunda tabiiy boyliklarning ustuvor yo'nalishi hisoblanib, bevosita ularning rivojlanganlik darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy sharoiti ya'ni, tabiat komplekslari, texnik infratuzilmalarining rivojlanganligi sanoat tarmog'i, xizmat ko'rsatish tizimi, madaniyat, san'at ilm fanining rivojlanganligi bilan, ya'ni bir so'z bilan aytganda, mamlakatlarning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni bilan bog'liq.

O'zbekistonning nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lganligi, xalqaro bitimlar, shartnomalarning o'z vaqtida imzolanganligi hududlarda dam olish uylari, turistlar bazalari, sport lagyerlari, sanatoriyalar, sanoat, transport, savdo va aloqa muassasalarining rivojlanishi rekreatsion faoliyatning rivojlanishida asos bo'lib hisoblanadi.

Mamlakat hududidagi barcha sohalarda islohotlarni amalga oshirish uchun, O'zbekiston etarli imkoniyatlarga – nisbatan qulay tabiiy va iqtisodiy geografik o'rniga, boy tabiiy va inson resurslariga hamda ma'naviy va ilmiy-texnikaviy salohiyatlarga ega.

O'zbekistonda mustaqillikni mustahkamlash va bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni mobaynida ro'y byerayotgan iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar murakkab ilmiy-nazariy va amaliy vazifalarni keltirib chiqardi. Murakkab va chuqur ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, mamlakatning turli joylarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohot rivojidagi tafovutlar hududiy omillari va geografik jihatlarini kompleks holda hisobga olish va shu asosda rekreatsion resurslarni rivojlantirish kyerakligini ko'rsatdi.

Ko'pgina mamlakatlarda rekreatsion xizmat iqtisodiyotning yirik va mustaqil tarmog'i bo'lib, band aholining 10-15 % ini o'ziga jalb qiladi. Rekreatsion faoliyatni tashkil qilish hududning tabiiy va iqtisodiy sharoiti bilan, ayniqsa, hududning geografik joylashuvi bilan bog'liq. Masalan, Turkiya davlatining geografik o'rni, ya'ni uning evropa, Osiyo, Afrika bilan tutash hududiga joylashganligi unda bu faoliyatning rivojlanishida bosh omil bo'lgan. Shuningdek, mamlakatlarning tarixiy, etnografik va madaniy o'rni ham bunda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bu hududlarda dam olish uylari, turistlar bazalari, sport lagerlari, sanatoriyalar, sanoat, transport, savdo va aloqa muassasalarining rivojlanishi rekreatsion faoliyatning rivojlanishida asos bo'ladi.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab rekreatsion faoliyatning rivojlanishiga hududlardagi mintaqaviy barqarorlik, milliy, diniy adovatlar, siyosiy to'qnashuvlar, terorizm, ekstremizm; kabi holatlarning avj olganligi o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi yondashuvlar bilan birga rekreatsion faoliyatdagi ekologik rekreatsiya ahamiyatini ham hisobga olish lozim. Ekologik rekreatsiya tijorat rekreatsiyasidan farqli ravishda kishilarning jonli, ruhiy quvvatini qayta tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rekreatsiyaning g'oyaviy-siyosiy vazifa bajarishi ham kishilarda tabiatga xalqlarga, ularning rivojlanish tarixi, turmushining afzal xususiyatlarini anglashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Turizm kishilarda baynalminallik, vatanparvarlik, tashabbuskorlik kabi tuyg'ularning shakllanishida katta ahamiyatga ega. Mamlakatlar, millatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning kengayishiga yo'l ochadi. Turli kasb egalari uchun malaka oshirish imkonini beradi.

Rekreatsiyaning tibbiy-biologik vazifa bajarishi sanitar-kurort davolanish va sog'lomlashtirishdan tushkunlik bilan bog'liq muammolarini hal etishda ko'maklashadi.

Rekreatsiyaning ijtimoiy-madaniy vazifa bajarishi eng muhim jihatidir. Madaniy yoki ma'naviy ehtiyoj birinchi navbatida dunyoni keng ma'noda anglash va unda o'z o'rmini bilish ehtiyojidir. Rekreatsion faoliyat o'z mamlakati va butun dunyoni, alohida davlatlarning madaniyati, tarixi va ijtimoiy qiymatlarini va tabiat bilan insonning ma'naviy muloqoti uchun keng imkoniyat ochadi.

Rekreatsiyaning ijtimoiy vazifa bajarishida ishchi va xizmatchilarning mehnat qobiliyatlarini qayta tiklash bosh o'rinni egallaydi. Chunki, ishchi va xizmatchilar dam

olishi davomida mehnat qobiliyatini tiklaydilar, ruhi tetiklanadi., ya`ni go`yoki yangi mavsum uchun ishga otlanayotganday kayfiyatda yana ish o`rniga qaytadi. Ularning mehnat qobiliyatining ortishi ishlab chiqarish samaradorligini ortishiga olib keladi.

Mamlakatimizda ham mustaqillik yillarida turli qadimiy shaharlar yubileyleri, simpoziumlar, forumlar, xalqaro konferentsiyalar, festivallar, xalqaro sport musobaqalariga e`tibor ortdi. Natijada, respublikaning xalqaro hamjamiyatdagi nufuzining ortishiga sabab bo`lmoqda. Jumladan, mamlakatimizning islom madaniyati markaziga aylanishi ham mustaqillik davrida butun respublika miqyosida ziyoratgohlarning ta`mirlanishi, ularga e`tiborning ortganlining natijasidir.

O`zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, davlat tabiiy qo`riqxonalari qat`iy muhofaza qilinadigan hududlar bo`lib, ularda yovvoyi tabiatning yil bo`yi kuzatib boriladi. Hozirgi kunda respublika hududida 9 ta davlat qo`riqxonasi mavjud bo`lib, ularning asosiy vazifalaridan biri tabiat landshaftlari, noyob va nodir hayvon, o`simlik turlarini tabiiy ahvolda saqlab qolish va keyinchalik boshqa hududlarni ular bilan boyitishdan iborat. Mavjud ikkita bog`ning vazifasi esa, go`zal landshaftlar va ularning yovvoyi vakillarini muhofaza qilish bilan birga, ekologik turizmni rivojlantirish, insonlarning tabiat bilan aloqasini kuchaytirishdir. Ushbu qo`riqxonalarning er maydoni respublika umumiy er maydonining 0,5 foizini, milliy bog`lar esa, 1,3 foizini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi O`zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishi va rekreatsion resurslarning jarayonining rivojlanish xususiyatlari bo`yicha ilmiy, amaliy takliflar ishlab chiqarishdan iborat. Tadqiqotda berilgan tadbirlar majmui tabiiy boyliklardan shu jumladan rekreatsion resurslardan oqilona foydalanish uchun ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

O`zbekistonning teng huquqli a`zo sifatida jahon hamjamiyatiga qo`shilishi jarayonida rekreatsion resurslar xalqaro turizmga hamkorlikni rivojlantirish shart-sharoitlariga asosiy e`tibor qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. I.A.Karimov. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O`zbekiston», 1997.
2. I.A.Karimov. O`zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O`zbekiston», 1998.
3. Axmedov E.A. O`zbekiston Respublikasi. — T.: O`zbekiston, 1998.
4. A.Nig`matov, N.Shamuratova. O`zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi. Ekologiya xabarnomasi. 2007, №2, 40-49 b.
5. U. Saporov. Ekologik ong va ekologik madaniyat. Ekologiya xabarnomasi. 2007, №1, 8 b.
6. F.Inog`omov. Qo`riqxonalar va milliy bog`lar faoliyatiga bag`ishlangan matbuot anjumani. Ekologiya xabarnomasi. 2007, №1, 5 b.
7. I.Jabborov. O`zbek xalqi etnografiyasi. T.: “O`qituvchi”, 1994, 243 b.
8. Nuritdinov E. Mejdunarodnoe sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Yevropi. – T., 2002.
9. Respublika Uzbekistan: Entsiklopedicheskiy spravochnik. – T.: «O`zbekiston milliy entsiklopediyasi», 1994.
10. Soliev A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. – T., 2003.
11. To`xliiev N. O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. – T., 1998.
12. V.S. Pereobrajenskiy. Teoritecheskie osnovy rekreatsionnoy geografii M., «Nauka» 1975.
13. N.S. Mironenko, I.T. Tverdoxlebov. Rekreatsionnaya geografiya. Izd. Moskovskogo Universiteta 1981.
14. Qayumov A., Rasulov M., Umarov S., Yakubov O`. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. T., 2005, 74-75 b.
16. H.Vahobov., O`.Yakubov O`tkir. Rekreatsion geografiya asoslari. T., 2008.
17. O`zbekiston Respublikasi. Entsiklopediya. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.
18. <http://www.google.uz>.
19. <http://www.ziyonet.uz>.
20. WWW. nature. uz.
21. E-mail: knigi@szko.ru